O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Karimov Olimxo‘ja Islomovich

CHOLG‘U IJROCHILIGI VA ANSAMBLI

Respublika oliy o‘quv yurtlari bakalavriatining 5111100 — “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma

Buxoro
“Durdona” nashriyoti
2019

UO'K 780.6
85.315
K 87
Karimov, O.I.
Cholg‘u ijrochiligi va ansambli [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Karimov O.I., - Buxoro : Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2019. - 196 b.
KBK 85.315

Ushbu o‘quv qo‘llanma musiqa san’ati sohasidagi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda ansambllar haqida, ansambl ijrochiligi xususidagi bilimlar o‘rganiladi hamda usuliy sharhlar asosida ijrochilik dasturini kengaytirish uchun bir qator yangi talqindagi musiqiy asarlar va DTS ga asoslangan holda keltirilgan.

Mas’ul muharrir:
Baxtiyor Ashurov, O‘zbekiston Madaniyat Vazirligi “Musiqa nashriyoti” bo‘lim mudiri.

Taqrizchilar:
Rustam Abdullayev, O‘zbekiston Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi Raisi, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi.
Said Boltazoda Saidiy, NavDPI. San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor. Xalqaro “Antiquye World” ilmiy akademiyasi akademigi
Sanoqul Do‘stov, BuxDU, pedagogika fakulteti musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 2-maydagi 394-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-5610-6-9

Данное учебное пособие предназначено студентам высших учебных заведений в области музыкального искусства.

В нём изучаются навыки ансамблевого исполнительства и даны сведения об ансамблях, и на основе методических комментарий приведены ряд новых музыкальных произведении а также СГОдля расширения репертуара по исполнительства.

Ответственный редактор:

Бахтиёр Ашуров, заведующий типографии “Музыка” Министерсва культуры Узбекистана

Рецензенты:

Рустам Абдуллаев, Председатель саюза Композитаров Узбекистана, заслуженний деятель труда искусств, профессор.

Саид Болтазода Саидий, кандидат в науках искусствоведения, профессор, НавГПИ. Академик Международной научной академии “Antique World”

Санокул Дустов, доцент кафедры преподование музыки БухГУ.

This teaching manual is meant for the students, studying at the High Educational Institutions in the field of musical Art and learning the skills of the Ensemble Performance. A lot of musical works are given in this manual on the basis of methodical comments with a view to broaden the repertoire of SGO performance

Editor-in-chief:

Bakhtiyor Ashurov, Head of the Department of Music Publishing of the Ministry of Culture of Uzbekistan.

The observers:

Rustam Abdullayev, Chairman of the Association of Composers and Composers of Uzbekistan, Professor, Honored Art Worker of Uzbekistan.

Said Boltazoda Saidiy, Navayi Candidate of Fine Arts, Professor. Academician of the International Academy of Sciences "Antiquye World"

Sanoqul Dustov, Associate Professor of Music Education at Pedagogical Faculty, Bukhara State University

Annotatsiya

“Cholg‘u ijrochiligi va ansambli” fani o‘zbek xalqininig sevimli cholg‘ulari asnosida asrlar mobaynida insonlarga ma’naviy meros sifatida xizmat qilib, uning kelib chiqishi er.avv.3000 yillik tarixga borib taqaladi. Ushbu davrdan tortib bizning davrimizgacha ustoz-shogird tizimida yetib kelgan turli milliy va mahalliy musiqiy san’atimiz bugungi kungacha yetib kelganligi bilan, ayrim milliy cholg‘ularimiz yetib kelmagan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma DTS talablari va jahon kompozitorlarining eng sara asarlari va ma’naviy musiqaga maqbul keladigan yangi zamonaviy kompozitsion asarlar bilan qamrab olingan bo‘lib, 6 bob va qismlardan iborat:

-ansambl ijrochiligining umumiy qoidalari.

-milliy cholg‘ular tarixi va klassifikatsiyasi.

-amaliy mashqlar va etyudlar.

-yakka ijroda asarlar majmuasi.

-fortepiano jo‘rligida ijro etiladigan asarlar.

-ko‘p ovozli ansambl ijrochiligiga oid asarlar.

Talabalarni mustaqil ravishda mashg‘ulotlar olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish va ijrochilik dasturi mahoratlarini chuqurlashtirish va texnikalarini yanada mukammallashtirishda qaratilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5111100-bakalavr yo‘nalishininig talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, zamonaviy kompozitorlarning yangi asarlari va innovatsion texnologiyalarda o‘z yechimini topganligi bilan ahamiyatlidir.

Аннотатция

Предметь по “Инструментальная испольнения и ансамбль” является коренной традиционной музыки для Узбекскых народов в течении жизни устного профессионального испольнение и является любимыми инструментами так как служат в духовным наследием и их происхождение восходит к 3000 годам до нашей эры. От наидревнейшых этапов жизны некоторые национальные музыкальные инструменты не дошли до нашых времьень.

Учебник составлена по требованиям СГО и проиведениями знаменытых всемирных композиторов а также из навейших современных произведении и состоит из 6 разделов и парагров;

-обшее правила испольнения ансамбля;

-история и классификация национальных инструментов;

-практические упражнения и этюды;

-комплекс произведений в одиночном испольнении;

-произведений с сопровождением фортепиано;

-произведение для многолосного испольнения;

Развивать навыки учащихся в поизведении самостоятельных семинаров и углюблять программы и методы рачвития учащихся.

Учебное пасобия назначена для степени 5111100-бакалаврского направления и важен, поскольку что он решил свои новыи инновацонные технологии и произведении современных композитаров.

Annotation

The science of creativity and txe chsemle science txe main priorities of development are txe Uzbek peopleis favoritefor centuries ithas served as a spiritual heritade for people, and its origin dates bask to 3000 years the national and local musical art that has come to aur time from the time of the teacher – the student system, has come to aur days, and our national musical instruments have not come. This tutorial is compiled by the Dalat Education standarts reguirements and compositions of the best composers and hew compilations composed of spiritual music, coresisting of six chapters;

-Ceneral rules of the ensamble performance;

-History and classification of national instruments;

-Praktikal exercises and etiguefte;

-The unigue collection of works;

-Works executed by Fortapiano;

-Works by many audio ensembles;

Txe goal of txe course is to develop students’ skills of self-help and extend their skills and skills.

Mazkyr’s manual is 5111100- a bachelor’s degree which is very importans for the students of the nev innovative technologies.

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

O‘quv fani: **“Cholg‘u ijrochiligi va ansambli”.**
O‘quv qo‘llanma nomi: **“Cholg‘u ijrochiligi va ansambli”.**

Ishtirokchilar: Musiqa ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan I-II-III bosqich bakalavrlari.

Mazkur o‘quv qo‘llanma: 5111100 – cholg‘u ijrochiligi va ansambli sinifida milliy musiqiy qadriyatlarimizni chuqur o‘rganish, milliy xalq kuylarini alohida yuksak badiiy did bilan ijro etish malakalarini takomillashtirishga alohida e’tibor beriladi. Darslar jarayonida ta’limning tarbiya bilan mushtarakligiga erishish maqsadida talabalar yuksak axloqiylik, milliy ong, milliy tuyg‘u, milliy iftixor, Vatanni sevish va ardoqlash hislarini tarbiyalab borish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari: Cholg‘u ijrochiligi va ansambli fanining maqsadi - talabalarning o‘quv jarayonida olgan bilimlarini ansambl sifatida mujassamlashtirish, keyingi o‘qituvchilik faoliyatida cholg‘u asboblari ansambllari tashkil qilish jarayonlarini, talaba va o‘quvchilarning o‘qishdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil qilish, madaniy merosga to‘g‘ri yondashishga, ularning tafakkur va hissiyotlarini rivojlantirib borib, g‘oyaviy - badiiy va ma’naviy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish.

Musiqa fanining umumta’lim maktablari muassasalarining DTS dasturiga muvofiq Oliygohlardagi amaliy mashg‘ulotlarni texnik vositalardan foydalanib o‘tkazish ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘qish jarayonida kafedralar tashkil etilgan fonotekadan foydalaniladi.

Ushbu fanning vazifalari:-cholg‘u ijrochiligi va ansambli tarixi, shakllantirishi haqida ma’lumotga ega bo‘lish;

-ansambllarni tashkil qilish haqidagi nazariy va amaliy ma’lumotlarni bilish ijrodagi usullar (cholg‘u zarblari, shtrixlari), doira usullari, bezaklardan foydalana olish;

-ansambl ijrosidagi unison, hamda ko‘p ovozli musiqiy asarlarni o‘rganish, tahlil qila olish; cholg‘ular haqida qiziqarli suhbatlar o‘tkaza olish;

-umumta’lim maktablarida turli hil ansambllarini tashkil eta olish, repertuar tanlay olish, konsert chiqishlarini uyushtirish malakalarini egallash.

-cholg‘uda ijro etishni o‘rgatish jarayoni o‘quvchilar tomonidan ijro asoslarini ongli ravishda puxta egallash, ijro uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni hosil qilish va ularni amalda qo‘llay olish hamda mustaqil ijodiy fikrlash va kuzatish qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek estetik didini shakllantirishga qaratilgan.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar. Bakalavr:

-asosiy va qo‘shimcha cholg‘u asbobi, ijro vositalari va badiiyati;

-ansambl turlari;

-ansamblda badiiy ijro etish tassavvuriga ega bo‘lish;

-musiqaning rivojlanish xususiyatlarini anglash yakka ijrochilik mahorati ustida ishlash;

-klassik bastakor va kompozitorlarning yaratgan merosini o‘rganish va ijro etish; chet el musiqa madaniyatining ilg‘or an’analaridan foydalanish;

-cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha tanlagan sozida xalq kuylari, o‘zbek bastakorlarining mashhur asarlarini ijro eta olishni bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo‘llay olishi;

-notani o‘qib ijro etish malakalarini shakllantirish;

-cholg‘uda mukammal ijro etish bilim va malakalariga ega bo‘lish;

-o‘rganilayotgan musiqa asarini umumiy tahlil eta bilish;

-cholg‘uda ansambl va xor jamoasiga jo‘r bo‘la olish malakalarini egallash;

-cholg‘uda musiqa asarini badiiy ijro va talqin etish ko‘nikmalarini egallay olish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Fanning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va usuliy jihatidan uzviyligi: Cholg‘u ijrochiligi va ansambli - fani solfedjio, garmoniya, cholg‘uchilar ansambli, cholg‘ushunoslik fanlari, cholg‘uchilar orkestri bilan bevosita birgalikda o‘tiladi. Shuningdek cholg‘uchilar ansambli, pedagogika, psixologiya fanlari bilan bevosita bog‘liq.

Fanning ta’limdagi o‘rni: Mazkur ta’lim yo‘nalishidagi umumkasbiy fanlar ichida cholg‘u ijrochiligi va ansambli fani talabalarga ijrochilik mahorati, cholg‘uchilar ansamblini tashkil etish va ishlash, jamoaga rahbarlik qilish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Talabalar ushbu fanlarni birinchi kursdan boshlab o‘zlashtirishlari jarayonida o‘zbek xalq kuylarini ijro etish malakalarini o‘zlashtirib O‘zbekiston bastakorlari asarlari, chet el kompazitorlari asarlari, qardosh xalqlar kuylari, rus bastakorlari asarlaridan namunalar ijro etish bo‘yicha ijrochilik mahoratlarini shakllantirib boradilar.

Fanning o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar: Fanni o‘rgatishdagi yangi pedagogik texnologiyalar hozirgi kun talabi - talabalarga bilim berishni tushuntirish, uqtirish, bayon qilish orqali amalga oshirish bilan bir qatorda ko‘proq ularning bilim olishga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini o‘stirish hamda ularning mustaqil bilim olishlariga imkoniyat yaratib berishni nazarda tutmoq zarurligini taqozo qiladi.

Asosiy qism

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

O‘rta Osiyoda ijrochilik san’atining paydo bo‘lgan davridan to XIX asrning 60-yillarigacha taraqqiyoti, xalq cholg‘ularini uzoq o‘tmishda paydo bo‘lganligi, musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg‘ular, damli cholg‘ular, so‘ngra torli-mizrobli va torli-kamonli musiqa cholg‘ulari paydo bo‘lganligi hamda tarixiy manbalari.

O‘zbek kompozitorlari va bastakorlari hamda o‘zbek xalq kuylari: “O‘zgancha”, “Qashqarcha”, “Do‘loncha”, “Farg‘onacha”, “Norim - norim”, “Usmoniya”, “Saboh”, “Dutor bayoti” va shu murakkablikdagi boshqa asarlar.

“Nozanin” B.Aliyev musiqasi. “Qizlar raqsi”, M.Mirzayev musiqasi. “Arzihol”, R.Tursunov musiqasi. “Go‘zal vatanim”, M.Mirzayev nusiqasi. “Shahlo”, R.Tursunov musiqasi, “Nozli yorga”, R.Tursunov musiqasi, “Cho‘l durdonasi”. R.Tursunov musiqasi, “Zavqim kelur”, M.Mirzayev nusiqasi. "Gulbahor", "Tanovar", "Aliqambar", "Oromijon", "Sharob", "Nasri segoh", "Dilhiroj", "Xorazm lazgisi", "Rajabiy", "Samoi Dugoh", "Mirzadavlat", va boshqalar.

Fortepiano jo‘rligida ijro etiladigan asarlar: M.Mirzayev “Bahor valsi”, I.Akbarov “Alla”, P.Xoliqov “Raqs”, M.Mirzayev “Shodlik”, “Yangi tanovar”, K.Komilov “Xayolimda”, F.Alimov “Lirik vals”, G.Qodirov “Raqs”, A. Muhamedov qayta ishlagan “Dutor bayoti”.

Q.Mamirov “Yoshlik taronasi”, F.Alimov “Raqs”, Sh.Sayfuddinov “Fasli bahor”, D.Zokirov “Ko‘rmadim”, B.Giyenko qayta ishlagan “Nayrez”, J.Sultonov “Raqqosasidan”, R.Ne‘matov “Xumor”, M.Bofayev “Poyema”, S.Xayitboyev “Rubob taronasi”, B.Giyenko “Badahshon raqsi”, Narimanidze “Davluri”, F.Nazarov “Qo‘shiq va raqs”, X.Rahimov “Navro‘z”, A.Muhamedov qayta ishlagan “Rohat”, F.Vasilev va Ye.Shukrullayev qayta ishlagan “Uyg‘urcha qo‘shiq va raqs”, S.Rustamov “Askerani”, D.Zokirov qayta ishlagan “Tanovor”.

Chet el bastakorlarining asarlari: M.Oginskiy “Polonez”, P.Chaykovskiy “Neopolitanskaya pesnya”, M.Glinka “Polka”, U.Gadjibekov “Qo‘shiq va raqs”, I.Brams “Vengercha raqs” №5, M.Bolakirov “Polka”, F.Amirov “Aslan qo‘shig’i”. Qashqar rubobi sozining ijroviy imkoniyatlari haqida tobora chuqurroq tasavvurga ega bo‘lib borish. Taniqli ijrochilarni o‘ziga xos ijro uslublari. Mahorat sirlarini o‘zlashtirib borish; Notaga qarab chalish malakasini o‘stirish, birinchi kursga nisbatan ijro jihatidan birmuncha murakkab bo‘lgan texnik va bezakli mashqlar. Gamma va etyudlarni chalish, fortepiano jo‘rligida jo‘rsozlik va jo‘rnavozlik malakalarini o‘zlashtirish.

S.Rahmaninov “Italyancha polka”, I.Brams “Vengercha raqs” №2, M.Glinka “Ivan Susanin” operasidan “Raqs”, F.Shubert “Serenada”, U.Gadjibekov “Ko‘rog‘li” operasidan “Raqs”.

O‘rganilayotgan asarlarni mustaqil tahlil qilish, asar xarakteriga mos tushadigan ijro uslublarini mustaqil tanlash va ijro etish mahoratini o‘stira borish.

O‘zbek xalq musiqasi namunalarini ijro etishda maqsadga muvofiq aplikatura tanlash va ijro etish bezaklarini qo‘llay bilish malakasini o‘stira borish, ifodali ijro va tajriba egallab borish.

Bilim va malakalarni takomillashtirish ansambl cholg‘ularida badiiy ijro uchun zarur bo‘lgan shtrixlar tizimini o‘zlashtirish (yakka zarb, qo‘sh zarb, teskari zarb, ufor zarb, tremolo) hamda

o‘zbek an’anaviy musiqada mavjud ornamentlarni (forshlag, naqshlag, mardent, trel kabilar) ijro etish texnikasini egallash.

Nota bilan chalish, fortepiano jo‘rligida ijro etish malakalarini o‘stira borish, kompozitorlarning murakkab asarlarini chalish, mahoratini singdirib borish. Ijro imkoniyatidan kelib chiqqan holda va o‘z mahoratini o‘stirish maqsadida ijro uchun mustaqil asarlar tanlash, mos ijro uslublarini topish va o‘rganilayotgan asarlarni har tomonlama tahlil qilish, o‘quvini o‘stira borish.

Ansambl cholg‘ularida ijro etishning texnik va bezakli ijro etish malakalarini orttirib borish, nota yozish, kuy va qo‘shiqlarni rubobga moslash va turli tonliklarga ag‘dara bilish malakasini egallash:

- davlat attestatsiyasi talablari darajasidagi ijro jihatidan murakkab asarlarni, xalq kuylarini mahorat bilan chalish texnikasini egallash; maktab dasturiga kiritilgan barcha qo‘shiqlarga jo‘rnavozlik qilish, tinglash uchun berilgan asarlarni to‘laqonli ijro etish malakasini egallash;

- maktabda sinfdan tashqari musiqiy mashg‘ulotlar jarayonida rubobchilar ansambli, duyet, trio, kvartet jo‘rovozliklarini tashkil etish tajribasini egallash; o‘z ustida mustaqil ishlash, asarlar tanlash, mustaqil o‘rganish, notaga qarab ravon ijro etish va har bir asarni badiiy va xushohang ijro etish malakasini shakllantirish.

Talabalar yil davomida chalish texnikasiga oid etyudlar, ijroning umumiy qoidalarini o‘rganadilar va shuningdek tovush hosil qilish uchun yozilgan maxsus mashqlarni bajaradilar hamda qochirimlarni mashq qiladilar. Bu davrda talabalar 6-8 ta badiiy asar va 1-3 sinf uchun mo‘ljallangan maktab qo‘shiqlarini o’zlashtirishlari lozim.

Etyudlar: “Etyudlar” bo‘limiga talabalarning turli tayyorgarlik darajalariga muvofiq qiyinchiligi jihatidan turlicha asarlar tanlangan. O‘zbek va rus guruhlari talabalari uchun moljallangan dasturga ijro texnikasi shakli turlicha bo‘lgan etyudlar kiritilgan.

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni: Mustaqil fikrlash borasida o‘quvchi faqatgina o‘z o‘qituvchisining ko‘rsatma va fikrlariga ergashib bo‘ysunishi emas, balki biron masala yuzasidan o‘zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildira olishi kerak.

O‘quvchining mustaqil mashg‘ulotlarida musiqa ijrochiligi san’atiga ongli munosabati yetakchi vazifani o‘taydi. Cholg‘uda ijroni o‘rganish jarayonida yaxshi yo‘lga qo‘yiligan, munta’zam ravishda amalga oshiriladigan uy mashg‘ulotlarining ahamiyati juda kattadir. Bunda mashg‘ulotlar davomida o‘quvchi mehnatga bo‘lgan ongli munosabati shakllana boradi. Ba’zi o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilariga keragidan ortiq homiylik ko‘rsatib, ularni mustaqil mehnat qilishlariga xalaqit beradi. Aksincha, o‘quvchilarning mustaqil mehnat qilishlari uchun qanchalik erta imkoniyat yaratilsa, uning natijasi shunchalik tez ko‘zga tashlanadi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakillardan foydalanish tavsiya etiladi;

-darslik va o‘quv qo‘llanmalar fan boblari va mavzularini o‘rgatish;

-tarqatma materiallar boyicha ma‘ruzalar qismini o‘zgartirish;

-maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

-yangi texnikalarni apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarini o‘rganish;

-talabaning o‘quv ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rgatish;

-faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari:

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlar mavzulari: Yirik shakldagi asarlar

1. D.Kabalevskiy - Sonatina.
2. Y. Berkovich - Variatsiyalar.
3. A.Vilinskiy - Sonatina.
1. B.Giyenko – “Jasur yigit”, “Vals”, “Kuy”.
2. F.Nazarov - Marsh.
3. D.Omonullayeva - Raqs. Marsh.
1. D.Shitte - №18, 22, 23 etyud.
2. K.Cherni - №31 etyud.

3. I.Berkivoch - №27 etyud.
4. A.Lemunan - №17 etyud.

Ansambllar

1. V.Motsart - Variatsiyalar.
2. V.Vitlin - “Bolalar uchun kuy”.
3. Chet el xalq kuyi.

O‘quv qo‘llanmaning informatsion-usuliy ta‘minoti: Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnalogiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

Mazkur fanlarni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - komunikatsion texnalogiyalari yo‘nalishi nazarda tutiladi:

- Cholg‘u ijrochiligi va ansambli fani bo‘yicha nazariy bilimlarda zamonaviy kompyuter texnalogiyalari saytlaridagi elektron darsliklar namunalaridan foydalanish;
- O‘rganilgan asarlar ijrosi yozilgan musiqiy disketlar, CD DVD MP3 va magnitofon lentalari;
- Musiqiy filmlar yozilgan hujjatlar, disklar;
- O‘zbekiston televideniyasi “Oltin fondi”da saqlanayotgan “Shashmaqom”, “Oltin meros”, mumtoz ashulalari va filmlardan vizual holda foydalanish.

Didaktik vositalar: Jihozlar va uscunalar, moslamalar: electron doska - xitachi, LCD - monitor, electron ko‘rsatgich (ukazka).

Video - audio uscunalar- video va audiomagnitofon, microfon, coloncalar.

Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidaqi proyector, DVD - discovod, Web - camera, video ko‘z.

KIRISH

Ma’lumki, maqomlarga, xalq kuyi va ashulalariga talab xalqimiz orasida tobora ortib bormoqda. Ana shunday talab va ehtiyojni qondirish maqsadida yetuk ijrochi mutaxassislarni tarbiyalash mas’uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqining boy musiqa merosini o‘rganish va uni keng omma ichida targ‘ib qilish ishlari san’atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo‘lmog‘i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosning ustozdan shogirdga bevosita o‘tishida tabarruk zotlar ko‘prik vazifasini o‘tash bilan birgalikda o‘zlarining ijodlari bilan ham namuna bo‘lganlar.

Yosh avlodni tarbiyalashda, avvallambor, mutaxassis o‘qituvchilar o‘zlari barcha namunali xislatlarni mujassamlashtirgan bo‘lmog‘i zarur. **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzalarida,** *“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyligimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”* - degan fikrlari hammamizni to‘lqinlannirib yubordi.

Hamma sohada o‘qituvchilar vijdonli, kamtar, ma’naviy va axloqiy pok, yoshlarga g‘amxo‘r, yaqindan maslakdosh, o‘z kasblariga hurmat, e’tiborli va sadoqatli bo‘lmoqliklari kerak. Yoshlarni ham ana shu fazilatlar bilan tarbiyalamoq, kelgusida barcha sohadagi kabi an’anaviy musiqa merosimizning borgan sari zargarona sayqallashuvida va rivojlanishida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugun san’at dargohiga ilk bor qadam qo‘ygan yosh yigit va qizlar musiqa san’ati sirlarini astoydil o‘rganyapti. Ma’lumki, respublikamizning barcha musiqa dargohlarida turli ansambllar qatori o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli darslari ham olib boriladi. Ansambllarda ishtirok etish yosh musiqachilar uchun katta ijrochilik maktabini o‘tashi shak-shubhasiz.

Ansambl so‘zi fransuzcha ensemble - so‘zidan olingan bo‘lib, birgalikda ma’nosini bildiradi.

Cholg’u ijrochiligi va ansamblida cholg‘uda fortepiano jo‘rligida ijro etish, ikki yoki undan ko‘proq cholg‘ularning birgalikda, ya’ni jo‘rlikda ijro etishi ansambl deyiladi. Faqat unison chaladigan cholg‘ular guruhi ansambl bo‘libgina qolmay balki, duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet va har xil tarkibdagi orkestrlar ham o‘zaro ansambl bo‘lib ijro etadi.

Musiqa oliygohlari va ixtisoslashgan san’at maktablarining ansambl sinflarida cholg‘uchilar soniga, cholg‘ular turiga qarab dutorchilar, rubobchilar ansambli yoki o‘zbek cholg‘ulari ansambllarini tuzish mumkin. Bunday sharoitda ish boshlagan o‘qituvchi yoki ansambl rahbari o‘quvchilarning qobiliyati, egallagan bilim va ko‘nikmalari hamda professional tayyorgarligini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni olib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dastlabki mashg‘ilotlardan cholg‘ularning yaxshi sozlanishiga alohida e’tibor berib talabalarni muntazam ravishda umumiy sozning tiniq, toza bo‘lishiga o‘rgatib borish zarur.

Bu esa o‘quvchilarning eshitish qobiliyatlarini yanada rivojlanishiga yordam beradi. Yosh sozandalar mutaxassislik darslarida cholg‘uda chalish ko‘nikmalarini, ijrochilik mahorati sir-asrorlarini chuqurroq o‘zlashtirish bilan birga ko‘plab asarlar bilan tanishadi, ularni yaratgan mualliflar haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

Yakka ijrodan farqli o‘laroq ansambl ijrochiligi darslarida o‘quvchilar ansambl bo‘lib chalish, ya’ni birgalikda hamnafas bo‘lib chalish sir-asrorlarini o‘zlashtirib boradi.

Bunda sozanda faqat o‘z cholg‘usinigina eshitib qolmasdan, balki boshqa sozlarning tovushini ham eshita olishi hamda umumiy ijroni eshita olish va o‘z cholg‘usining tovushini jamoa ijrochiligiga mos ravishda boshqara olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirib boradi. Shu bilan birga faqat o‘z sozining ijro imkoniyatlarini chuqur o‘rganib qolmasdan, qolgan barcha sozlarning o‘zigagina xos bo‘lgan tovush, tembr, koloritik hamda ijro imkoniyatlarini ham o‘zlashtirib, o‘rganib boradilar.

Ma’lumki, ansambl ijrochiligi darslari amaliy mashg‘ulotlar sirasiga kiradi. Shunday ekan talabalar o‘quv davridan boshlab o‘quv yurti doirasida turli xil konsertlarda va har xil tadbirlarda

oʻz ijrolari bilan muntazam ishtirok etadilar. Bu esa ularning kelajakda mohir sozanda bolib yetishishlarida va ijrochilik faoliyatini davom ettirishlarida asosiy omillardan biri boʻlib xizmat qiladi.

Ansambl mashgʻulotlarida har xil yakkanavoz cholgʻuchi hamda xonandalarga, joʻrnavozlik qilish talabalarga ashula yoki ijro etilayotgan asar matni bilan tanishish, turli asarlarni ijro etish sirlarini oʻzlashtirish bilan birga mutaxassislik va boshqa darslarda olgan maʼlumotlarining kengayishiga imkoniyat yaratadi. Ayni paytda cholgʻuchilar ansamblida ijrochilik faoliyatini olib boradigan har qanday sozanda, mutaxassislik darslarida yakka tarzda olgan bilimlaridan va yakkanavoz ijrochilikdan farqli oʻlaroq musiqani chuqurroq oʻrganadi, musiqiy tafakkuri yanada kengayadi, musiqani sezish, his qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada kelgusida boʻlajak sozanda sifatida turli xil jamoalarda ishlash koʻnikmalari shakllanib boradi.

Oʻzbekistonda koʻp yillardan beri salmoqli ijod qilib kelayotgan Bahor, Oʻzbekiston, Zarafshon ashula va raqs ansambllari, Y. Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli, Oʻzbekistonda maqomchilar ansambllari kabi ijodiy jamoalarning faoliyatiga nazar tashlab, ular ijrosidagi musiqalarni tahlil qilib koʻrsak, bu ijrolardagi nafislik, umumiy joʻrnavozlik, dinamika, sozandalarning oʻzaro bir-birlarini va musiqani qanchalik teran his qiishlarini kuzatishimiz mumkin.

Bunday ansambllarda uzoq vaqt ishlagan sozandalar faqat mohir sozanda boʻlib qolmasdan, oʻzbek xalq musiqasi, bastakorlarimiz asarlarini yoki shashmaqom asarlarining puxta bilimdoni boʻlib yetishganliklarining guvohi boʻlamiz.

Ushbu qoʻllanmaga kiritilgan asarlar ansambl ijrochiligi uchun toʻplangan boʻlsa-da, asarlarni ansambl boʻlib ijro etganda, albatta, ansamblning tarkibidan, sozandalarning ijrochilik mahoratlaridan kelib chiqqan holda, asarning maʻlum boʻlaklarini biror-bir yakka sozda yoki bir necha sozlar guruhida, shuningdek bir xil sozlarda oktava qilib chalish maqsadga muvofiq boʻlib, bu kuyning yanada jozibaliroq, yorqinroq jaranglashiga sabab boʻladi.

Ansambl rahbari yoki shu fandan dars beradigan oʻqituvchi oʻrganilayotgan kuy yoki qoʻshiqning muallifi, asar ijrosidagi oʻziga xosliklar haqida toʻliq maʻlumot berishi va bu asarning tavsiloti va tahlilini oʻquvchilarga toʻla ochib berishi kerak boʻladi. Dars jarayonida oʻqituvchi asarni biron-bir cholgʻuda oʻzi ijro etib koʻrsatib berishi, yoki oʻrganilayotgan asarning magnit tasmalaridagi ijrosini tinglash oʻquvchilar tomonidan asarni toʻlaqonli oʻzlashtirilishida hal qiluvchi omillardan biridir.

Oʻquv jarayonida mashgʻulotlarni guruhlarga boʻlib oʻtkazish yaxshi samara beradi. Bunda ansambl rahbari asar ijrosidagi murakkabroq qismlarni maʼlum bir guruhga yoki biror sozga tegishli boʻlgan boʻlaklari ustida ishlaydi.

Dars jarayonida oʻquvchilar diqqatini tarbiyalab borish juda muhimdir. Yaʼni rahbar boshqa bir soz bilan asarning maʼlum bir boʻlagi yoki elementi ustida ishlar ekan, qolgan oʻquvchilar bu jarayonni diqqat bilan kuzatib turishlari kerak. Chunki ansambl sozandalari umumiy ijroda hamnafas boʻlib ijro etishlari uchun har bir sozanda bir-birini juda yaxshi eshitishi, sezishi zarurdir.

Ushbu oʻquv qoʻllanma universitet va institutlardagi musiqa taʼlimi yoʻnalishlari, shuningdek ixtisoslashgan sanʼat maktablari uchun moʻljallangan boʻlib, undan bugunda faoliyat koʻrsatayotgan havaskorlik ansambllari ham foydalanishlari mumkin.

I BOB
ANSAMBL IJROCHILIGINING UMUMIY QOIDALARI

Ansamblda ijro mahoratini egallash avvalo to‘g‘ri o‘tirish, cholg‘u sozini to‘g‘ri tutish, tovush chiqarish madaniyatini egallab borish, ijro harakatlarini to‘g‘ri shakllantirish hamda jamoaviy ijro qoidalariga to‘liq rioya etishni nazarda tutadi:

- ijro paytida gavdani shunday tutish lozimki, toki u ijrochining barcha harakatlari uchun qulay va tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lsin;
- suyanchiqqa suyanmasdan, o‘rindiqning yarmida o‘tirish odat qilinadi, sozandalarning chap oyoqlari oldinroq o‘ng oyoqlari esa orqaroq joylashadi;
- o‘ng qo‘lning to‘g‘ri joylanishiga, ijro harakatlarining erkin bo‘lishiga erishiladi;
- chap qo‘l soz dastasini siqmasligi (rubob, afg‘on rubobi, soz, g‘ijjak, dutor sozlarida), qo‘l kafti dastaga tegmasligi, erkin bo‘lishiga harakat qilinadi;
- sozandalar kuyni boshlashda diqqat bilan o‘tirishlari, boshlovchi sozanda yoki doiraning auftaki bilan birgalikda boshlashlari zarur;
- kuyni tamomlashda ham xuddi shunday doira usuliga muvofiq yoki umumiy ansamblning bir nafasda tamomlashiga diqqatni qaratish lozim;
- ansambl ijrochiligida jamoaviy ijro madaniyatiga rioya qilish, ijro paytida diqqat bilan o‘tirish nafaqat o‘z sozi tovushi, balki umumiy ansambl tovushini va shunga mos ravishda o‘z sozi tovushini nazorat qilib borish lozim;
- ijro uchun qulay va to‘g‘ri holatni tanlash, qo‘llarni erkin tutish, tovush chiqarish madaniyatini to‘g‘ri o‘zlashtirib borish har bir soz ijrosi uchun umumiy talablar mazmuniga kiradi.

CHOLG‘U SOZLARINI SOZLASH

Cholg‘u sozini aniq tovush manbayiga masalan, kamertonga yoki to‘g‘ri sozlangan fortepiano tovushiga sozlash tavsiya etiladi. Ansamblda esa cholg‘ular odatda nay yoki chang cholg‘usiga sozlanadi. Dars boshlanishidan yoki biror-bir konsertga chiqishdan oldin ansambldagi cholg‘u sozlarini har birini toza qilib sozlash tufayli butun ansambl unison sozining sofligiga erishiladi.

Cholg‘u sozlarini dastlabki mashg‘ulotlarda musiqa rahbarining o‘zi sozlab beradi va sekin-asta shogirdlarini ham o‘z sozlarini mustaqil sozlashga o‘rgatib boradi. Ma’lumki o‘zbek xalq cholg‘ularining deyarli barchasi (puflab chalinadigan sozlardan tashqari) teri parda bilan qoplangan yoki yog‘och qopqoqli bo‘lib, simlar xarrak orqali o‘tkaziladi.

Shuning uchun ham cholg‘ularni sozlash jarayonida torlar tagiga qo‘yilgan xarrakning to‘g‘ri joylashishiga alohida e’tibor berish zarur. Soz avval ochiq torda hosil qilinib keyin oktava pardasi bosilib uning aniq sozlanganligiga ishonch hosil qilinadi. Agar tovush sof oktavada eshitilsa, bu xarrak to‘g‘ri joylashganligidan dalolat beradi. Torni bosib chalganda ochiq parda oktava pardasidan baland eshitilsa xarrak o‘rnashgan joyi tovush xonasidan uzoqlashtiriladi yoki aksincha, torni bosganda tovush oktavadan past sadolansa, xarrak tovush xonasi tomonga suriladi, natijada ochiq tovush oktava tovushi bilan bir xilligiga erishiladi. Birinchi ochiq tovush tiniq sozlanishiga erishilgach, qolgan torlar ham shu tovushga nisbatan aniq qilib sozlanadi. Barcha sozlar aniq sozlanishiga erishilgandagina ansamblning umumiy sozini ham tiniq unison eshitilishiga erishiladi.

MILLIY CHOLG‘ULARNING JAHON STANDARTLARI KLASSIFIKATORLIK TARTIBIGA AMAL QILINISHI

O‘zbek xalq cholg‘ulari tarixidan. O‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligining qadimiy va boy an‘analari. Ommaviy cholg‘u jamoalarining tuzilishi. O‘zbekiston musiqa va san’at o‘quv yurtlarida xalq cholg‘ulari bo‘yicha ta’limning yo‘lga qo‘yilishi. Umummadaniy va estetik tarbiya jarayonida hamda musiqiy savodxonlikni targ‘ib qilishda o‘zbek milliy cholg‘ularining roli. O‘zbek milliy cholg‘ulari bo‘yicha ta’lim tizimidagi muammolar. O‘zbek xalq cholg‘ularini

takomillashtirish jarayoni. Cholg‘ularni takomillashtirishga xalq ustalari va sozandalarning qo‘shgan hissalari.

Xalq cholg‘ularida nota tizimi bo‘yicha o‘qitish. Xalq cholg‘ulari ta’lim tizimi bo‘yicha 30-yillardagi hukumat qarorlari. O‘quv yurtlarida nota tizimi bo‘yicha ta’limning joriy etilishi. Milliy cholg‘u ustaxonalarining faoliyati. 30-yillar o‘zbek musiqa madaniyatining o‘sish davri. Toshkentda birinchi musiqa oliy o‘quv yurtining tashkil qilinishi. O‘zbek davlat filarmoniyasi va nota tizimi bo‘yicha ijro etuvchi o‘zbek xalq cholg‘u orkestrining tuzilishi. Toshkent davlat konservatorisida “Xalq cholg‘ulari” bo‘limi va fakultetning ochilishi. Milliy musiqa cholg‘ulariga bo‘lgan talab va ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi. Ko‘p ovozli milliy cholg‘u jamoalarining faoliyati, turli cholg‘ular uchun maxsus yozilgan asarlarning paydo bo‘lishi.

FORTEPIANO JO‘RLIGIDA IJRO ETISH

Musiqa asarini o‘rganishda dutor partiyasi bilan birgalikda ijro etiladigan fortepiano partiyasini puxta o‘rganish zarur. Fortepiano bilan birga ijro etishni musiqa asarini o‘zlashtirish jarayonida boshlagan ma‘qul. Shunda ijrochi o‘z partiyasini o‘zlashtirish bilan bir qatorda fortepianoda ijro etiladigan partiyani ham o‘ziga singdirib boradi. Ba’zi sozandalar o‘z partiyalarini oxirigacha o‘zlashtirib bo‘lganlaridan keyingina fortepiano bilan birgalikda ijro eta boshlaydi. Bu hol cholg‘uchi uchun birmuncha qiyinchilik tug‘diradi.

Cholg‘u va fortepiano ijrosi uchun yaratilgan musiqa asarlarini kuzatsak, unda quyidagi o‘xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Ba’zi musiqa asarlarida fortepiano cholg‘uchi (solist)ga jo‘r bo‘lish vazifasini bajarsa, boshqa musiqa asarlarida cholg‘u bilan fortepianoning partiyalari bir-birga teng va ma’lum darajada mustaqil xarakterga ega bo‘ladi. Birinchi holda kuyni boshqarib borish asosan cholg‘uchi (solist)ga yuklatilgan bo‘lib, fortepiano faqat jo‘rlik (akkompanement) vazifasini o‘taydi. Bunda solist ijro etayotgan kuy mustaqil, ijrosi fortepianosiz ham ma‘lum darajada tugallangan bo‘ladi. Bunday musiqa asarlari o‘zining tuzilishi bo‘yicha nisbatan oddiy bo’lib, ulardan ta’limning boshlang’ich davrlarida foydalanish mumkin. Lekin bundan o‘quvchi sozanda fortepiano partiyasiga e‘tibor bermasa ham bo‘laveradi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bunday musiqa asarlarini ijro qilish paytida o‘quvchi fortepianoda ijro etilayotgan akkordlar va ritmik shartlarni o‘z ijrosi bilan birgalikda eshita olishi lozim.

O‘zbek xalq cholg‘uchilarida ijroni o‘rganayotgan yosh sozandalarda fortepiano bilan birgalikdagi ijro paytida ko‘proq uchrab turadigan kamchiliklardan biri musiqa asari ijrosini fortepiano bilan bir vaqtda boshlay olmaslikdir. Bu paytda o‘quvchining diqqati tamomila o‘zining ijrosiga qaratiladi va natijada fortepiano jo‘rligi solistning ijrosi bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelmay qoladi. Ijroni fortepiano bilan birgalikda boshlash ko‘nikmasini shakillantirishda musiqa asarining birinchi tovushi boshlanishdan oldingi harakat hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buni asarning boshlanishidagi dirijorning qo‘l harakati (auftakt)ga o‘xshatish mumkin.

Musiqa asari davomida cholg‘uchi partiyasida ma‘lum miqdorda pauzalar uchrab turadi. Bunday paytda fortepianodagi ijro odatda davom etadi. O‘quvchi pauzalarning necha taktligini eslab qolishoi bilan bir qatorda o‘z ijrosining qachon boshlanishini ham puxta bilib olishi kerak. Bunda pauza davomidagi fortepiano ijrosini to‘la anglab olishi yaxshi natija beradi.

Bundan tashqari, musiqa asaridagi asosiy kuyning yo’nalishini aniqlab olish fortepiano jo‘rligida ijro etishda asosiy vazifalardan biridir. Ma‘lumki, har bir musiqa asari ma‘lum kuy (ohang) asosida qurilagan bo‘ladi. Mana shu kuy fortepiano partiyasida yoki solist partiyasidaligini ajrata bilish konsertmeyster bilan chalish vaqtida ijroning to‘laqonli bo‘lishiga yordam beradi.

Fortepiano partiyasini yuzaki bilish cholg‘uchi uchun yetarli emas. Fortepiano partiyasi solistning partiyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, musiqa asarining buzilmas kompozisiyasini tashkil etadi. Shuning uchun haqiqiy ijro ulardan ansambl qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda katta mehnatni talab qiladi. Cholg‘uchining fortepiano bilan birgalikdagi ijrosi qanchalik o‘z vaqtida boshlansa, musiqa asarini o‘zlashtirilishi shunchalik sifatli va tez bo‘ladi.

SAHNADA IJRO QILISH

Talaba tomonidan to‘la o‘zlashtirilgan musiqa asari pirovard natijada sahnada ijro etiladi. Bunga qanday tayyorgarlik ko‘rish kerak? O‘quvchining sahna ijrosiga birinchi navbatda o‘qituvchilar katta e’tibor va ehtiyotkorlik bilan yondashishi kerak. Asarni faqat yod olish sahna ijrosi uchun yetarli emas, uni tomoshabinga tushunarli tarzda yetkazish kerak. Shu sababdan o‘qituvchilar bu ishda o‘quvchilarga yaqindan yordam berishlari, sahna ijrosi paytida ularning xotirjam bo‘lishlari uchun zamin yaratishlari lozim. O’quvchining talabga javob bermaydigan sahna ijrosini ba‘zilar haddan ziyod hayajonlanish natijasi deb tushunadi. Albatta, sahna ijrosi paytida nafaqat yosh sozandalar, hatto tajribali, mohir ustalar ham hayajonlanadi. Lekin sahna ijrosida sodir bo‘ladigan kamchiliklarni faqatgina hayajon tufayli desak to‘g‘ri bo‘lmas.

Tajriba guvohlik beradiki, o‘quvchi dars jarayonida musiqa asarini qanchalik puxta o‘rgangan bo‘lsa, sahna ijrosi paytida u shunchalik kam xatoga yo‘l qo‘yadi. Sahna ijrosi paytidagi hayajonlanishning turli ko‘rinishi mavjud bo‘lib, ba’zilari o‘quvchi ijrosiga yordam bersa, boshqalari, aksincha, ijodiy kuchlarga salbiy ta’sir etadi. Ba’zi hollarda hayajonlanishning kelib chiqishiga o‘quvchining o‘zi sabab bo‘ladi, lekin boshqa turdagi hayajonlanish o‘quvchining nazorati va iroda kuchidan chetda bo‘lishi mumkin: sifatsiz cholg‘u, shart-sharoitning noqulayligi, qo‘llarning haddan tashqari sovib ketishi va boshqalar. Hayajonlanishni keltirib chiqaradigan sabablardan qat’i nazar, uning asosida o‘quvchining psixikasiga bo‘lgan ta’siri yotadi. Haddan tashqari hayajonlanishning oldini olish uchun o‘quvchi faqatgina o‘zining shaxsiy tajribasiga suyanishi va o‘z hayajoni sababini to‘g‘ri aniqlashi kerak bo‘ladi.

Hayajonning sababi ko‘p hollarda musiqa asarining o‘quvchi tomonidan yaxshi o‘zlashtirilmaganligida ko‘rinadi. O‘quvchi sahna ijrosi oldidan xuddi shu o‘zlashtirilmagan asar (qism)ning bo‘lajak ijrosini o‘ylab o‘z hayajonini yanada zo‘raytirib yuboradi. Shu sababdan ham sahna ijrosi o‘quvchining ijro mahoratini o‘zlashtirish uchun qilgan mehnatini naqadar to‘gri va sifatli bo‘lganligini aniqlashda ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi.

Sahna ijrosida birinchi navbatda o‘quvchining repertuaridagi qaysi asarni ijro etish to‘gri bo‘ladi? Tajriba shuni ko‘rsatadiki, sahnadagi ijroni o‘quvchi repertuaridagi xotirjam, vazmin xarakterga ega bo‘lgan musiqa asarlari ijrosi bilan boshlagan ma’qul. Bu o‘quvchining o‘z hayajonini yengishiga, fikrlarini bir maqsadga qaratishiga yordam beradi. Lekin ba’zi sozandalar konsertda o‘zlarining chiqishlarini murakkab va jadal tezlikdagi musiqa asarlarining ijrosi bilan boshlaydi. Ular konsertning boshlanishida hali kuchlar sarf bo‘lmasidan, charchab qolmasdan oldin murakkab musiqa asarlarni ijro etish ma‘qul deb tushuntirishadi. Albatta, har bir sozanda bo‘lajak sahna ijrosida oldin o‘z kuch va imkoniyatlarini chamalab, shu asosda ijro etilajak musiqa asarlarining tartibini tuzib olishi kerak. Sahna ijrosidan oldin sozanda nima bilan shug‘ullanishi kerak? O‘z - o‘zidan ma’lumki, musiqa asarini puxta o‘rganib, o‘zida mustahkam ishonch paydo qilgan o‘quvchilargina sahna ijrosidan oldin o‘zlarini xotirjam his qiladi. Sahna ijrosidan bir - ikki kun oldin sozanda o‘z ishonchini yanada mustahkamlashi uchun musiqa asarlarini to‘xtamasdan ijro etib, ba’zi murakkab jumlalarni alohida takrorlashi lozim. Bunda u

diqqat- e’tiborini asarning umumiy tuzilishi, uning asosiy yo‘nalishiga qaratib, o‘zini charchatib qo‘ymasligi kerak.

O‘QUVCHINING MUSTAQIL ISHLASHI

O‘quvchi o‘z o‘qituvchisining ko‘rsatma va fikrlariga ijodkorona yondashgan holda o‘zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildira olishi kerak.

O‘qituvchi rahbarligida o‘tiladigan darsning ahamiyati katta, lekin bu ish o‘quvchining mustaqil ishlari muhimligini inkor etmaydi. O‘quvchining mustaqil mashg‘ulotiga sarf bo‘layotgan vaqtini bekor o‘tkazmasligini o‘rganib borish kerak. Buning uchun o‘quvchiga mustaqil mashg‘ulotni qanday tashkil qilish, nimalarga ko‘proq e‘tibor berish kerakligini tushuntirish lozim. Vaqtdan ratsional va unumli foydalanish mustaqil ishlash asosi prinsiplaridan biri bo‘lishi zarur.

Asosiy prinsiplaridan yana biri mashg’ulotning muntazamligidir. Ijroni o‘rgatishning dastlabki davridan boshlab o‘quvchida muntazam mustaqil ishlash ko‘nikmasini hosil qilish zarur. Odatda muntazamlikka erishish qiyin bo‘lsa ham, bunday mashg‘ulotlar asta-sekin odat tusiga kirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Ayrim o‘quvchilarning uyga berilgan vazifani tayyorlay olish hollarini ham uchratamiz. Buning sababini bir so‘z bilan tushuntirish qiyin. Lekin ko‘p hollarda uy vazifasi tayyor emasligining sababi o‘quvchining darsga bo‘lgan yomon munosabati yoki dangasaligida emas, balki vazifani oxirigacha tushunib yetmasligi, musiqa asarini o‘rganishga qanday yondashish kerakligini bilmasligidadir. Shu sababli mustaqil ishlash uchun berilayotgan vazifa o‘quvchiga batafsil tushuntirilishi, o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirilishi lozim. Ba’zi o‘quvchilar mustaqil mashg‘ulot paytida berilgan musiqa asarini boshidan oxirigacha ko‘p marotaba takrorlayveradilar. Bunda musiqa asarining ma’nosi va o‘ziga xos xususiyatlari to‘la va aniq tahlil qilinmaydi. Asar o‘quvchi oldida ijro etib bera olish uchungina yuzaki takrorlanadi.

Mustaqil shug‘ullanishdagi mashg‘ulotlarning kamchiliklaridan yana biri o‘quvchilar vazifani tayyorlash jarayonida o‘z ijrolarini nazorat qila olmasliklaridir. Masalan, musiqa asarining matnini yod olinish jarayonida biror bir nota noto‘g‘ri o‘rganiladi va buni o‘quvchining o‘zi sezmaydi. Yoki ma’lum bir ijro usuli noto‘g‘ri bajariladi va bu ham o‘quvchining nazaridan chetda qoladi. Bunday kamchilik dars paytida o‘qituvchi tamonidan bartaraf etiladi. Ijro paytida o‘zining harakatlari, tovushlarning to‘g‘riligini nazorat qilish ko‘nikmasi o‘quvchilarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki rejali ravishda olib borilgan mashg‘ulotlar evaziga erishiladi. O‘z- o‘zini nazorat qilishning ijrochi uchun ahamiyati juda katta u orqali ijrodagi kamchiliklarga barham berish mumkin.

Mustaqil mashg‘ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo‘ladi? Yuqorida aytib o‘tganimizdek, mustaqil mashg‘ulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq, konkret bo‘lsa, o‘quvchining vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg‘ulot qanday kechishidan qat‘i nazar, uni ma’lum reja asosida olib borish yaxshi natija beradi. Quyida mutaqil mashg‘ulotlarning taxminiy tuzilishi va vaqtini keltiramiz:

1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa.
2. Yangi berilgan vazifani o‘zlashtirish 15-20 daqiqa.
3. Dam olish uchun 5 daqiqa.
4. Oldin o‘rganilgan vazifalarni takrorlash 20-25 daqiqa.

Keltirilgan vaqtlar me’yori taxminiy bo‘lib, uni belgilashda o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining katta-kichikligiga qarab kamaytirish yoki aksincha ko’paytirish mumkin. Mustaqil mashg‘ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etyapti. Bu bir qarashda kamdek ko‘rinishi mumkin. Ammo mashg‘ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko‘zlangan natijaga bemalol erishish mumkin.

Musiqa asarini yod olishni har bir sozanda qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Bu borada hamma uchun yagona ko‘rsatma bo‘lishi qiyin. Ba’zi sozandalarda tekstni ko‘rib eslab qolish qobiliyati kuchliroq bo‘lsa, boshqalarida eshitib eslab qolish qobiliyati kuchli. Shu sababdan ham asarni yod olish ishida ularning metodlari turlicha bo‘ladi. Muhimi, musiqa asari qaysi bir metod bilan yod olinishidan qat’i nazar, u sozandaning

yodida mustahkam oʻrnashib qolishidir.

Hozirgi paytda oʻquv yurtlaridagi oʻzlashtiriladigan maʼlumotlar miqdorining ortib borishi, kam vaqt sarf qilib koʻproq natijaga erishishni taqozo etadi. Oʻquvchilarning mustaqil mashgʻulotlari muvaffaqiyatli boʻlishiga oʻqituvchi rahbarligida sinfdagi darsni shu mustaqil mashgʻulotga yaqinlashtirib oʻtish yordam beradi. Bunda oʻquvchi barcha vazifalarni mustaqil bajaradi va oʻqituvchi kerak boʻlgandagina oʻz koʻrsatmalarini beradi.

Oʻqituvchining mustaqil mashgʻuloti kunning qaysi vaqtiga moʻljallanishi kerak? Bunday mashgʻulot vaqtini belgilash oʻquvchining kun tartibiga bogʻliq. Agar oʻquv yurtidagi mashgʻulotlar asosan kunning birinchi yarmida boʻlsa, mustaqil mashgʻulot kunning ikkinchi yarmida oʻtkaziladi. Muhimi mustaqil mashgʻulot har kuni bir vaqtda oʻtkazilishi.

Uy vazifasini bajarishning bir qator muhim tamonlari boʻlib, bularni oʻquvchi esda tutishi zarur. Shulardan baʼzilarini koʻrib chiqamiz: Musiqa asari oʻquvchi tomonidan avvalo toʻgʻri tushunilishi, yaʼni asar mohiyati toʻgri ochilishi asosiy vazifa qilib qoʻyilishi kerak. Oldin aytib oʻtilganidek, asar maʻnosini toʻgri tushunishda ijro uslublarining tanlanishi, belgilarga rioya qilish, applikaturaning toʻgʻri qoʻyilishi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

Oʻquvchining mustaqil mashgʻulotlari paytida uning diqqat-eʼtibori albatta biror konkret vazifani bajarishga qaratilishi kerak. Aks holda mashgʻulot quruq, maʼnosiz kechib, hech qanday natijaga erisha olmaslik mumkin. Baʼzi oʻquvchilar musiqa asarini oʻzlashtirish davrida nota tekstiga koʻproq eʼtibor berib, ijroning ifodali boʻlishi kerakligini unutib qoʻyadi. Shu kamchilikning oldini olish maqsadida oʻquvchilarning diqqat markazida doimo ijroni ifodali bajarish vazifasi turishi shart. Boshqacha aytganda, oʻquvchilar asar tekstini oʻzlashtirishga qancha kuch sarf qilishsa, ijroning ifodali chiqishiga ham shuncha eʼtibor berishlari kerak.

Oʻquvchi biror xatoga yoʻl qoʻygan paytda shu boʻlakni vazmin surʼatda diqqat bilan qayta takrorlashi kerak. Shunda yoʻl qoʻyilgan xatoning sababini toʻgʻri aniqlab, shu xatoga boshqa yoʻl qoʻymaslik choralarini koʻradi. Oʻquvchilar ijrosidagi xatolar ham bir-biridan farq qiladi. Ayrim holatlarning qaytarilishi oʻquvchilarda odat tusiga kirib, asarning maʼlum qismida xato deyarli har safar takrorlanaveradi. Bunga sabab notoʻgʻri tanlangan applikatura, ijro usuli yoki boshqa bir kamchilik boʻlishi mumkin. Bunday xatolarning kelib chiqish sababini toʻgʻri aniqlash uni bartaraf etishning garovidir. Xatolar tasodifiy xarakterga ega boʻlsa ham, ularga yoʻl qoʻymaslik lozim. Xatolar qanday boʻlishidan qatʼi nazar oʻquvchi oʻzining mustaqil mashgʻuloti paytida ularni bartaraf etish choralarini topishni oʻzining asosiy maqsadlaridan biri qilib qoʻyishi kerak.

Cholgʻu ijrosi bilan shugʻullanish natijasida oʻquvchi ham aqliy, ham jismoniy charchashi sababli uning dam olishiga bir oz vaqt ajratilishi kerak. Aks holda ijroning sifati yomonlashib, xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻyilishi mumkin.

II BOB
MILLIY CHOLG'ULAR TARIXI VA KLASSIFIKATSIYASI

Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti

O‘zbek xalq cholg‘ularining tarixi qadimdan o‘rganilib kelinadi. IX-XVII asrlarda yashab o‘tgan O‘rta Osiyo olimlarining risolalarida musiqiy cholg‘ularning tavsifini, mashhur musiqachilar nomini, mashhur musiqiy asarlar nomini uchratish mumkin.

O‘zbek an’anaviy musiqasini yig‘ish va o‘rganish XIX asrning 70-yillaridan boshlab keng miqyosda olib borila boshladi. Bu ishlarni asosan harbiy kapelmeysterlar olib borishgan. Ular orkestrda ishlash bilan birga, etnografik faoliyat bilan ham shug‘ullanishgan. Birinchi navbatda, bular A.Eyxgorn va F.Leysiklardir. Xususan, A.Eyxgorn turli guruhlarga kiruvchi 36 ta xalq cholg‘usidan iborat katalogni tuzgan.

Xalq cholg‘ularini yig‘ish va o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.A.Uspenskiy chuqur iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919 - yili Toshkentda musiqiy-etnografik bo‘lim ochiladi va u bu bo‘limga rahbarlik qiladi. Bu bo‘lim olib borgan ishlardan biri xalq cholg‘ulari kolleksiyasini yig‘ish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini o’rganish bo‘ldi.

O‘zbek musiqasini o‘rganish tarixida keng ko‘lamdagi olim, iste’dodli folklorchi, pedagog V.M.Belyayevning xizmatlari ham kattadir.

V.A.Uspenskiyning Turkmanistonda (1925-1926) o‘tkazilgan ekspeditsiyasi materiallari V.M.Belyayevning Sharq musiqa madaniyatini o‘rganishi uchun katta turtki bo‘ldi.

Musiqa nazariyasini o‘rganishda V.M.Belyayev Sharq olimlarining musiqa haqidagi risolalarining ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tadi. Uning o‘zbek xalq cholg‘ulari rivoji tarixi bo‘limida olib borgan izlanishlari, ularni sinflashtirish va o‘lchash ishlari katta qiziqish uyg‘otadi.

1933 - yili Moskvada V.M.Belyayevning “O‘zbekiston musiqiy cholg‘ulari” nomli kitobi nashr qilinadi. Unda 50 dan ortiq cholg‘uning tavsifi berilgan. Kitobda birinchi marta o‘zbek xalq cholg‘ulari ilmiy darajada tasniflangan.

Xulosa qilib muallif quyidagicha fikrlaydi: o‘zbek xalq cholg‘ularining musiqiy madaniyatni rivojlantirishda keng qo‘llash uchun ularni qayta ta’mirlash, nota yozuvini kiritish kerak.

An’anaviy musiqa cholg‘ularini o‘rganish va ularda ijro etishni o‘rgatish masalalari bo‘yicha izlanishlarni F.M.Karomatov, cholg‘ularni qayta ta’mirlash va modernizatsiya qilish borasidagi izlanishlarni esa A.I.Petrosyans olib bordi.

A.I.Petrosyans “Cholg‘ushunoslik” kitobida xalq cholg‘ularining asosiy guruhlarini, sinflashtirishni ilmiy asoslab bergan. Bu guruhlar oilalarini yaratib, ularning tuzilishini, texnik va badiiy imkoniyatlarini tavsiflab berdi. Shu bilan bir qatorda, ularni samarali qo‘llash uchun amaliy maslahatlar ham berilgan.

Ancha yillar mobaynida ta’lim usuliyoti shakllandi. Xalq cholg‘ularini qayta ta’mirlash va takomillashtirish natijasida tovush hosil qilishning texnik usullari, yangi ijrochilik ko’nikmalari ishlab chiqildi.

Cholg’uda ijroning eshitish uslubidan nota yordamida ijro uslubiga o’tilishi o’quv repertuari ustida ko’p ishlashga, xalq cholg’ularida ijro maktablarini tashkil qilishga olib keldi.

Xalq cholg‘u ijrochilariga ta’lim berishning usuliy va didaktik asoslarini ishlab chiqish xuddi shu yo‘nalishda olib borildi. O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi xalq cholg‘ulari kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan bir qator fundamental darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, to‘plamlar chop ettirildi.

Xalq cholg‘ularida ijrochilik maktablari paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, xalq cholg‘ulari orkestrini tashkil qilish va ishlash bo‘yicha o‘quv-qo‘llanmalar yozildi. Shunday qilib, xalq cholg‘ulari yo’nalishi bo‘yicha musiqiy ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini uchun ta’lim asoslari shakllandi.

Har qanday talaba butun o‘quv yili mobaynida yetarli miqdorda keng umumta’lim va kasbiy bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Chunki hammamizga ma’lumki, ko‘pgina bitiruvchilarimiz o‘z

hayotlarini pedagogik faoliyat bilan bog‘laydi. Bu esa psixologiya, pedagogika, usuliyot bo‘yicha yaxshi tayyorgarlikni, keng dunyoqarashga ega bo‘lishni talab etadi. Ammo shu paytgacha pedagogika tamoyillariga asoslangan, ta’limning o‘ziga xosligini ochib beruvchi, ijrochilik madaniyati yutuqlarini ifodalagan umumiy va shaxsiy usullar ishlab chiqilmagan.

Nashr qilingan ko‘pgina darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ta’limga tor ma’noda yondoshilgan. Hamma tavsiyalar cholg‘uda ijro holatiga, tovush hosil qilishning texnik uslublariga, ijrochilikni egallashga doir bo‘lib, o‘quv-tarbiyaviy jarayon va pedagogik e’tika masalalari ham birmuncha yoritilgan.

Lekin ta’limning tarbiyaviy ahamiyati, g‘oyaviy-ma’rifiy yo‘nalishi, ilmiyligi va shu kabi dolzarb masalalarga kamroq e’tibor berilgan.

Oliy o‘quv yurtlarida bunday usuliyotning ishlab chiqilmaganligi ijrochilik san’ati bo‘yicha ta’limning sifatiga, pedagogik tayyorgarligiga salbiy ta’sir etadi.

Usuliyot tushunchasi o‘qituvchilik nuqtayi nazaridan qaraganda ikki xil ma’noda ishlatiladi:

– usuliyot - o‘quv yurtlarida olib boraladigan nazariy kurs, o’quv fani sifatida;

– usuliyot - o‘qituvchining ish usuli va shakllari sifatida.

Usuliyot haqida gapirilganda, ta’limning asosiy obyektiv va subyektiv omillari yig‘indisidan kelib chiqish kerak.

Usuliyot ta’lim amaliyotining samarali uslublarini o’rganish asosida ishlab chiqiladi, ilmiy-nazariy izlanishlar jarayonida amaliyotda asoslash va umumlashtirish natijasida hosil qilinadi.

Pirovardida ikkita asosiy usuliyot hosil bo‘ladi: ya’ni **umumiy usuliyot** va **maxsus usuliyot**. Umumiy usuliyot ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Maxsus usuliyot esa ta’limning maxsus bilim ko‘nikmalarini tezroq egallash usuli va shakllarini ishlab chiqadi.

Xalq cholg‘ularida ijrochilik usuliyotini takomillashtirishni quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Zamonaviy umumiy va musiqiy pedagogika, psixologiya va didaktika masalalarini chuqur o‘rganish.
2. Maxsus usuliyotlar natijalarini, dars berish tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish.
3. Oldingi maktablar hamda yo‘nalishlarni tanqidiy tahlil qilish, buning natijasida zamonaviy ta’lim rivoji tamoyillarini ishlab chiqish.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib holda shuni ta’kidlashimiz kerakki, bugungi kunda zamonaviy talablarga javob beruvchi o‘zbek xalq cholg‘ularini o‘qitish usuliyotini, ta’limning har bir bosqichiga (boshlang‘ich, o‘rta, oliy) alohida, o‘ziga xos ravishda yondashib, kelajakda yangi avlod adabiyotlarini yaratgan holdagina kasbiy tayyorgarlikning sifatini ta’minlashimiz mumkin.

Birinchi navbatda musiqiy maktablar, ixtisoslashgan san’at maktablari va oliy o‘quv yurtlari uchun zamonaviy talablarga javob beruvchi o‘quv dasturlarini yaratish va ijrochilik san’ati madaniyatini yuqori saviyada tarbiyalash masalalarini hal etishimiz lozim bo’ladi.

Dinamika

Ijrochilik san’atining amaliyotida qollaniladigan vositalaridan biri bu - **dinamikadir**. Dinamika (yunoncha – dinamikos - kuchli) – musiqa tovushlarining qattiq yoki sekin ijro qilinishi. Dinamikada tovushni turlicha ijro etish, ya’ni bir yo‘la baland yoki past, asta-sekin kuchaytirish, yoki sekinlashtirish, ayrim tovushlarni alohida ta’kidlab, urg‘u berib eshittirish va shular kabi ijro uslublari bo‘lishi mumkin. Dinamikaning asosiy turlari ***forte*** (forte, nota yozuvida qisqartirilib - ***f*** holida yoziladi) - qattiq, kuchli; ***piano*** (piano, nota yozuvida qisqartirib ***p*** holida yoziladi) - sekin; ***creshshendo*** (kreshchendo – tovushni asta-sekin kuchaytirish); ***diminuendo*** (diminuendo - tovushni asta-sekin pasaytirish). U tovush jarangi tavsifi bo‘lib, tovush jarangi kuchining to‘satdan yoki asta-sekin o‘zgarishi, alohida tovushlarning kuch bilan ajratilib ko‘rsatilishida namoyon bo‘ladi.

Musiqada dinamika belgisining ahamiyati juda kattadir. U musiqiy ijroni bir xillikdan, ya’ni monotonlikdan saqlab, musiqaning jo‘shqin va ko‘p ma’noli bo‘lishiga yordam beradi. Asosiy ko‘rsatkichlardan biri shuki, sozandaning ijrochilik faoliyatidagi mazmunini, musiqaning badiiy

ijrosini va qay darajada yoritib berganligi bilan belgilanadi. Sozanda kompozitorning nota g‘oyalarini, o‘ylarini tinglovchiga yetkazib berish bilan bir qatorda, ijrochining shaxsiyatini, uning musiqiy iqtidorini, hissiyotini, ehtirosini, fikrlashini, xarakterining o‘ziga xosligini ham aks ettira bilishi kerak. Shundagina ijroda yuksak badiiylikka erishiladi.

Intonatsiya:

Intonatsiya (lotincha intono) - keng ma’noda: badiiy obrazni musiqa tovushlari bilan to‘g‘ri va toza ifoda etish. Tor ma’noda:

1. Musiqa tovushlari harakatida yuqorigi tovushlar munosabati.
2. Musiqadagi baland-past tovushlarning to‘g‘ri va aniq ijro etilishi.

Ayniqsa ashula aytganda yoki pardasiz cholg‘ular ijrosida tovushlarni “sof” (aniq) yoki “nosof” (noaniq) eshitilishi intonatsiyada tovush balandligining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ijro etilishini bildiradi.

Ijro jarayonida sozandaning toza intonatsiyalashishi, ya’ni balandligi, jarangi va tembri bo‘yicha maksimal darajada aniq tovushlarni ola bilishi, uning kasbiy tayyorgarligi yetarli darajada ekanligidan dalolat beradi.

Ayniqsa, ijrochining tovushlarning balandligi munosabatlarini aniq topa olishi juda ahamiyatlidir. Amaliyotdan ma’lumki, ijrochi qancha yaxshi fazilatlarga ega bo‘lmasin, cholg‘uda u kuyni falsh (noto‘g‘ri) ijro etsa, bu badiiy taassurotni buzadi. Intonatsiyaning sofligi, ijrochining sezgirligidir, deydi mashhur ispan violonchelisti Pablo Kazals. Bu hissiyotni, tozalikni nazarga ilmaslik mumkin emas. Aks holda ijrochi o‘z qadr-qimmatini pasaytiradi, garchi u yaxshi musiqachi hisoblansa ham.

Intonatsiyaning sofligi musiqachi iqtidorining so‘zsiz dalolati bo‘lib, u o‘zida muhim ijrochilik vositasi vazifalarini aks ettiradi, chunki aniq, sof va yorqin intonatsiya yordamida ijrochi musiqiy tovushlar badiiy obrazini ochib beradi.

Musiqiy intonatsiya murakkab jarayon, shuning uchun ham har xil cholg‘ularda turlicha bo‘ladi. Bu cholg‘ularning konstruktiv xususiyatlariga bog‘liqdir. Bu borada klavishli va torli cholg‘ularni qarama-qarshi qo‘yib solishtirish mumkin. Torli cholg‘ularda ijrochi xohlaganicha ohang (intonatsiya) ni o‘zgartirishi mumkin, klavishli cholg‘ularda esa ijrochi musiqiy temperatsiya qoidalari bilan mustahkam bog‘langandir.

Xullas, cholg‘ularning bu xususiyatlari ularni intonatsion prinsip yordamida klassifikatsiyalashga asos bo‘ladi. Bu klassifikatsiyaga ko‘ra, torli cholg‘ular - ixtiyoriy intonatsiyali, klavishli cholg‘ular mahkamlangan intonatsiyali, damli cholg‘ular yarim ixtiyoriy yoki yarim mustahkamlangan intonatsiyali cholg‘ulardir.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida milliy cholg’ular tarixi

O‘zbekistonda ijrochilik amaliyotida foydalanib kelinayotgan milliy musiqa cholg‘ularining 30 tadan ortiq turlari mavjud. Shulardan 18 nomdagi musiqiy cholg‘ular XX asrning 40-yillaridan keyin professor A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh mutaxassis va soz ustalari bilan hamkorlikda takomillashtirilgan musiqiy cholg‘ular bo‘lib, konsert sahnalarida yakkanavozlik sifatida, shu bilan birga, asosan orkestr va ko‘p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo‘ljallangandir. Bu muqaddam mavjud bo‘lgan milliy musiqiy cholg‘ularning shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko‘rinishga keltirish asosida yaratilgan bo‘lib, o‘sha cholg‘u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar edi, natijada nay, chang, rubob, dutor, g‘ijjak cholg‘ularining oilasi dunyoga keldi.

IDIOFONLAR

Qayroqtosh sozi

Qayroq - Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida tarqalgan urma musiqa cholg‘ularidan biridir. Bir-biriga urilib chalinadigan asboblardan - qayroq, yog‘och qoshiq, qo‘ng‘iroqchalarni (raqsga tushganda qo‘l va oyoqlarga kiyiladi) eslatib o‘tish mumkin. Qayroq suv bo‘ylaridan topiladigan silliq va yupqa tosh qayroqchalardir. Raqqos va raqqosalar o‘ng va chap qo‘llariga juft-juft qayroqlarni ushlab, musiqa usullarini

chertib, o‘z raqslarini bezatib, jilo beradilar. Qayroqda ijro etishning qulayligi uchun qayroq jufti yupqa temirlardan bo‘ladi. Shunda qayroqlar raqqoslarning qo‘llaridan tushib ketmaydi.

O‘zbekistonda raqslar nomma-nom ataladi, jumladan katta o‘yin, zang o‘yini, nog‘ora-doyra o‘yinlari qatorida qayroq o‘yini ham keng tarqalgan. Ayniqsa Xorazmda hozirgi davrda ham yaxshi qayroqchi raqqosa va raqqoslar bor. Juma qayroq, Ergash qayroq kabi qayroqchilar, Tamaraxonim hamda Qori Yoqubov ansambllarida birga faoliyat ko‘rsatib, ular bilan birga ijodiy safar qilib, dunyo kezganlar, ushbu konsertlarda o‘zbek milliy qayroq raqslarini namoyon qilishgan.

Safoil

Safoyil, safoil (sabai) - O‘zbekiston, Tojikiston va Xitoyda keng tarqalgan shiqildoq tuzilishidagi urma cholg‘u asbob. Safoyil ikki bo‘lak qattiq yog‘och kaltakchasidan iborat. Bu kaltakchaga ikkita temir aylanaga mayda temir halqachalar o‘rnashtirilgan. Safoyilni silkitib, yelkaga urib, shovqinli, turli murakkab tovush chiqariladi. Bu cholg‘u Qashqar va G‘uljadan O‘zbekistonga kirib kelgan. Safoyil uyg‘ur xalqining milliy cholg‘ularidan bo‘lib, raqsga tushganda erkak raqqoslar qo‘lida yelkaga urib chalinadi. Ijro etilayotgan musiqa usuliga moslaydi. Safoyil ko‘proq raqslarda qo‘llaniladi.

Uyg‘ur xalqining sho‘x qo‘shiqlari, raqslaridan xabardormiz. Shu raqs turlaridan biri yigit va qiz raqsidir. Raqs duetida albatta yigit qo‘lida safoyil bo‘ladi va uni zo‘r joziba bilan ishga soladi. O‘zbekistonlik uyg‘ur sozandalar ansambllaridan safoyil cholg‘usi mustahkam o‘rin olgan.

Changqobuz

Changqobuz, changqovuz - ikki lab orasiga qo‘yilib, o‘ng qo‘l barmoqlari bilan chalinadigan cholg‘u. Temirdan qilingan aylanma ramka oralig‘iga po‘lat til o‘rnatilgan bo‘ladi, chalganda barmoq bilan tilni harakatga keltirilib to‘lqinlantiriladi. Og‘iz bo‘shlig‘i tovush beruvchi rezonans xizmatini bajaradi va oktava hajmi oralig‘ida tovush beradi.

Changqovuz metalldan tayyorlangan juda sodda cholg‘u bo‘lib, sozandadan yuksak ijro mahoratini talab qilmaydi. Bundan tashqari, changqovuzda kuy ijro etish imkoniyati ham nihoyatda chegaralangan. Bu azaldan ayollar cholg‘usi hisoblanib kelgan. XX asrning 1960-yillariga qadar O‘zbekistonning deyarli ko‘p joylarida changqovuz ayollarning eng keng tarqalgan musiqiy cholg‘usi bo’lgan. Changqovuz turkiy qabila xalqlarining barchalarida, shuningdek, slavyanlarda va hatto roman-german xalqlarida ham uchraydi. Qadimda changqovuzlar tuya suyagidan ham yasalgan, degan ma’lumotlar bor. Hozirda changqovuzning eng mohir erkak ijrochisi Surxondaryolik Juma Abrayqulov hisoblanadi. ***(Changqobiz Buyuk Kushoniylar imperiyasi davridan keyin mavjud bo‘lgan.)***

MEMBRANOFONLAR

Nog‘ora - urib chalinadigan o‘zbek xalq cholg‘ularidan. Nog‘ora sopoldan yasalib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Nog‘oraning ko‘pincha ikkitasi chalinadi; hajmi jihatidan birinchisi ikkinchisiga nisbatan kichikroq bo‘ladi. Nog‘oralardan birinchisi (kichigi) - bak, ya’ni baland, ikkinchisi - bum, ya’ni past tovush beradi.

Nog‘ora olov yoki oftobda qizdirilib, tovushi balandlashtiriladi. Turli bayram, sayil va ko‘pchilik to‘plangan yig‘ilishlarda katta nog‘ora ishlatiladi. Buni - ***ko‘s*** nog‘ora deb atashadi. Nog‘ora tuvaklarining teri tortilgan qismiga maxsus cho‘plar bilan urish natijasida musiqiy usul hosil qilinadi. Nog‘oraning sadosi juda kuchliligi uchun ham undan faqat ochiq havoda ijro etiladigan karnay-surnay, doyra cholg‘ulari bilan birgalikdagi ansambl tarkibida foydalanishadi. Nog‘orada asosan ikkita tovush (bak va bum) bo‘lgani uchun ham uning notalari bir chiziqda yoziladi**.**

Doira (o‘zb. dapp, childirma, chirmanda) - o‘zbek, tojik va uyg‘ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg‘u asbobdir. Diametri taxminan 400 mm, gardishi ilgarilari uzum zangidan qilingan, so‘ngi vaqtlarda yog‘ochni egib yoki kichik yog‘och bo‘lakchalarini bir-biriga ulab yasalmoqda. Doira gardishiga buzoq yoki baliq terisi qoplanadi qirqdan ortiq halqachalar taqilib, bular doyrani chalganda qo‘shimcha sado beradi. Doirada ikkita asosiy tovush bor. Biri past “bum” (Xorazmda “gup”), ikkinchisi baland “bak” (Xorazmda “toq”) deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush “bakko” yoki “bachka” (“tak-tak”) yoki “baka” (“taka”) deb yuritiladi. Doyra keng tarqalgan cholg‘ulardan bo‘lib, unda turli ansambl, orkestr va yakka holda ijro qilinadi. Doira jo‘rligidagi raqslar o‘zbek va tojik xalqlari orasida juda keng tarqalgan. Doyra tovushlari notada bir chiziqqa yoziladi.

Rivoyat qilishlaricha, qadim o‘tgan zamonda bir jarchi bo‘lgan ekan. Agar biron xonadonda to‘y-tomosha bo‘lsa, u to‘yxona egasidan ruxsat olib, ot minib, daha va ko‘chalarga birma-bir kirib, to‘ydan darak berar ekan. Kunlardan bir kuni dahadagi katta bir boyning to‘yiga darak sola turib, ovoziga bor kuchini berib, tovushi bo‘g‘ilib qolibdi. Ana shunda unga doyra ko‘makka kelibdi. Va shu-shu darakchi uni qo‘liga olib, “baka-bum”lab, qancha dahalarni aylanmasin, aslo horimaydigan bo‘libdi. Xaloyiq esa eshigu darchalardan mo‘ralab, uning chaqiriqlariga quloq tutarkan. Yigit-qizlar bu jozibali soz ohanglariga qo‘l ko‘tarib, yer tepinib, raqsga tushibdilar va bundan o‘zlari ham zavq-shavqqa to‘libdilar. Shunday qilib, doyra - bayramlar, shodiyonalar, to‘ylar darakchisiga aylanibdi.

Doyra - o‘zbek musiqiy ijrochiligida usul beruvchi eng asosiy cholg‘u hisoblanadi, nafaqat ansambl yoki orkestr ijrosini, hatto ko‘pgina yakka cholg‘uchilar ijrosini ham doyra jo‘rligisiz tinglash qiyin. Bundan tashqari, doyra O‘zbekistonda eng keng tarqalgan musiqiy cholg‘ulardan biridir. Uni xalq ichida keng ommalashuvida Usta Olim Komilov, G‘ofir Azimov, Qahramon Dadayev, aka-uka Islomovlar, Odil Kamolxo‘jayev, Ilhom Ikromov kabi qator doyrachilarning xizmatlari katta.

XORDOFONLAR

Qonun - musiqiy cholg‘usi qadimda biz yashab turgan hududimizda keng tarqalgan. Lekin XX asr boshlaridan to 1980-yillargacha mazkur cholg‘u biroz unutilgan edi. Izlanuvchan sozandalar, xususan, Abdurahmon Xoltojiyevning say‘i harakati bilan bu musiqiy cholg‘u asbobi madaniy hayotimizga kirib keldi. Hozirgi kunda qonun turli ansambllarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Qonun xarraklari teri ustida joylashishi, torlari plastik ekanligi, uning sadolanishini mayinlashtiradi. Qonun torlari har ikkala qo‘l ko‘rsatkich barmoqlariga kiydiriladigan maxsus noxun-mediator bilan ijro qilinadi. Qonun diatonik tovushqatoriga ega. Qonun torlarining uchtasi ham bir xil qilib sozlanadi. Cholg‘uning o’ng tomonida joylashgan kichik xarrakchalar ana shu torlarni taranglashtirib yoki bo‘shashtirib, kerakli yarim tonliklarni hosil qilishga yordam beradi.



Qonun changsimon cholg‘ulardan bo’lib, cholg‘uchi barmoqlariga noxun (mizrob) bog‘lab, qonun torlarini tirnab chaladi. Qonun tovushi chang tovushidan farqli o‘laroq, uncha baland, ya’ni kuchli tovushga ega bo‘lmasa ham, uning nafis, muloyim sadosi tinglovchini o‘ziga tortadi.

Ustoz Abdusattor Qonuniy, Xo‘jaki Ja‘fariy Qonuniy, Hofiz Boboiy Qonuniy va boshqa cholg‘u ijrochilari o‘z davrlarida milliy cholg‘ularni asrabgina qolmay, balki ularning takomil topishida ham muhim rol o‘ynaganlar. Zahiriddin Muhammad Boburning e’tirof etishicha, Alisher Navoiy o‘z davrida ko‘plab cholg‘uchilarning iste’dodini namoyon etishga ko‘maklashgan. O‘z zamonasining mohir cholg‘uchilari va bastakorlari Navoiy yordami va homiyligida katta shuhrat qozonganlar. Qonun asosan Sharq mamlakatlari va Kavkazda keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda qonun sozi yakkanavozlik sifatida va turli ansambllarda munosib o‘rnini egallagan***.(Qonun - milloddan avvalgi 4-asrda mavjud bo‘lgan. 400 yil er.avv)***

Chang - qadimiy musiqiy cholg‘u hisoblansa-da, bizning hududimizga XX asrning boshlarida kirib kelgani haqida ma‘lumotlar bor. Chang - O‘rta Osiyo xalqlarining urma-torli cholg‘usidir. Changda unisonga sozlangan uchtadan tor bo‘lib, ovoz hajmi **kichik oktava *sol*** dan **uchinchi oktava sol diyez** ga qadar. Ilgari ijrochilik amaliyotida qo‘llanilgan changning tovushqatori diatonik ladda bo‘lgan. Notalar skripka kalitida yoziladi. Changning ustki qismi rezinka bilan qoplangan to‘qmoqcha kabi maxsus ingichka ikkita cho‘plar bilan urib chalinadi. XVII asrda yashagan musiqa olimi Darvishali Changiy changning juda qadimiy asbobligi va undan kasalliklarni davolashda foydalanilganini yozgan. Hozir chang qayta ishlanib, tovushqatori xromatik, ya’ni yarim tonlik qilingan. Ijrochining o‘tirib ijro etishiga qulay bo‘lishi uchun vintlarga o‘rnatilgan uchta oyoqi bor. Davomli sadoni yo‘qotish uchun pedal ishlangan. Orkestrda ijro etish uchun changning katta-kichik (pikkalo, prima, tenor va bas) turlari ishlab chiqilgan. *Chang yakka holda va cholg‘u jamoalari tarkibida ishlatiladi. Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarratov, Ahmadjon Odilov, Rustam Ne‘matov, Fazilat Shukurova, Tohir Sobirov, Tilash Xo‘jamberdiyev kabi sozandalarning mazkur musiqiy cholg‘uni targ‘ib qilishdagi va ommalashtirishdagi xizmatlari beqiyosdir. (Changsimon cholg‘ular, 2- asr janubiy sharq saroy cholg‘ulari sirasiga kirgan).*

Chang pikkoloning diapazon jadvali quyidagicha:



PIKKOLO CHANGI

Pikkolo changidagi torlarning soni va ularning joylanishi prima changnikiga o‘xshash bo‘ladi. Pikkolo changining diapazoni:

PIKKOLO CHANGIDA TOVUSHLARNING JOYLASHUVI



Ud - Sharq xalqlari orasida mashhur boʻlgan cholgʻu asbob. U torli - chertma cholgʻularning eng koʻhnalaridan biri boʻlib, mizrob (mediator) vositasida chalinadi. U nok shaklidagi katta kosaxona va qisqa hamda silliq dastali, juftlanib sozlanuvchi 11 ta atrofidagi ipak torlariga ega. Qadimiy tarixiy manbalar va boshqa musiqa haqidagi asarlarning shahodat berishicha cholgʻularning tor va parda tuzilishini ud cholgʻu asbobi asosida tushuntirilgan. Ud sozining melodiy I asrda ham mavjudligi aniqlangan. XVII asrda yashagan olim Darveshali Changiy oʻzining musiqa risolasida ud cholgʻusini asboblarning podshosi deb ta'kidlaydi. Chunki uning muloyim, yoqimli, nafis tovushi, ovoz hajmining kengligi oʻsha davrdagi boshqa cholgʻu asboblaridan ajralib turgan. Darveshalining yozishicha, ud sozida 12 ta juft sozlanuvchi ipak tor boʻlgan. Hozirda uning oʻn bitta tori boʻlib, birinchi, ikkinchi, uchinchi, toʻrtinchi va beshinchi torlari juft, oltinchi tori esa yakka. Torlarining barchasi kaprondan tortilgan. Notalari skripka kalitida yoziladi va bir oktava past ovoz beradi. Torlarining sozlanishi quyidagicha:

yozilishi

eshitilishi

Ovoz hajmi **mi** kichik oktavadan **lya** ikkinchi oktavagacha.

yozilishi

eshitilishi



Ud o‘zbek, tojik, arman, turk va boshqa Sharq xalqlari musiqa san’atida ishlatilib kelinmoqda.

Afg‘on rubobi. Afg‘on rubobining ikkinchi nomi Buxoro rubobidir. Ushbu cholg‘u ko‘proq forsiy zabonli xalqlarda keng tarqalgan va tovushining yo‘g‘onligi, mayinligi bilan ajralib turadi. Biroz boshqacharoq ko‘rinishdagi afg’on rubobi Hindiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, ba’zi Kavkaz xalqlari va arab davlatlarida ham uchraydi. XX-asrning 40-yillaridan keyin takomillashtirilib, xromatik tovush qatoriga keltirilgan afg‘on rubobi yakka holda va cholg‘u jamoalari tarkibida ijro etish uchun moslashtirildi. Afg‘on rubobini targ‘ib etishda mohir sozanda G‘ulomqodir Ergashevning xizmatlari katta bo‘ldi.

AFG’ON RUBOBI

Ruboblar turiga kiruvchi sozlardan afg‘on rubobi bo‘yi, shakli jihatdan qashqar rubobiga o‘xshashdir.

Musiqa tili bilan aytganda, zil (ingichka), bam (yo‘g‘on) tovushlari mavjud. Ya’ni afg‘on rubobi bam toifasiga ham kiradi. U ohangraboligi, tovushining o‘ziga xosligi bilan shinavandani o‘ziga jalb qiladi. Afg‘on rubobining tashqi ko‘rinishi xuddi suv kemasiga o‘xshaydi. Afg‘on rubobining torlari qoramol ichagi va po‘lat simlardan iborat. Asosiy ijro etiladigan torlaridan tashqari, yordamchi aks sado beruvchi (rezonans) torlar ham o‘rnatilishi mumkin.

Sozanda afg‘on rubobini bag‘riga olib, tizzasiga qo‘yib, mediator bilan chertadi. Rivoyatlarga ko‘ra, afg‘on rubobini bir zamonlar faqat ayollar ijro etishgan va qo‘llaridan qo‘ymay, bir paytning o‘zida raqsga ham tushib ketar ekanlar**.**

Dutor - tojik tilida ikki tor ma’nosini beradigan, eng sevimli va ommalashgan o‘zbek musiqiy cholg‘ularidan biridir. Haqiqatdan ikkita torga ega bo‘lgan dutorda kuy asosan birinchi torda ijro etilsa-da, ikkinchi tor o‘sha kuyga doimiy qo‘shilib sado berishi tufayli boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi. Dutorning sadosi juda mayin eshitiladi. Ba’zi cholg‘ular doyra jo‘rligisiz ijro etilishi qiyin bo‘lsa-da, lekin dutorning o‘zida usulni ijro etish imkoniyati borligi, uni yakka holdagi ijrosini qabul qilishga yordam beradi. Dutorning sadosini yaxshi eshitish uchun tanbur bilan birgalikda foydalangan ma’qul.



Dutor ikki qismdan (dasta va kosadan) iborat bo‘lib, bularni birlashtiruvchi qismi “bo‘g‘iz” deb ataladi. Dutor kosasi o‘yma yoki “qovurg‘a” chalarning birlashganidan qilinishi mumkin. “O‘yma dutor” Samarqand, Xorazm va Turkmanistonda qo‘llanilib, bir bo‘lak tut yog‘ochdan o‘yib ishlanadi. “Qobirg‘a” li dutor ham tut yog‘ochidan ishlanib, 8-10 bo‘lak yupqa taxtachani egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham yog‘ochdan tayyorlanadi. Odatda dutor yasaladigan tut yog‘ochi soyada quritiladi. Dutor dastasi olma yog‘ochidan qilinadi va unga 13-14 ichak parda bog‘lanadi. Dutorning umumiy uzunligi 1200-1300 mm. Ayrim joylarda 750-800 mm. Ipakdan qilingan ikki tor kvarta (o‘rta parda sozi), kvinta (bosh parda sozi), unison (qo‘sh parda sozi) va oktavalarga sozlanadi. Dutor ansamblda yoki yakka soz sifatida qo‘llaniladi. Dutor qaytadan ishlanib, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga kiritilgan. Orkestrda dutorning alt, bas va kontrabas turlari qo‘llaniladi.

Dutor alt - dutorning kichraytirilgan turi. Buning qopqog‘i tut o‘rniga archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlar o‘rniga ichak tor tortilgan. Pardalar dastani o‘yib, xromatik holda doimiy o‘rnashtirilgan. Torlar kvarta bo‘yicha **birinchi oktavadagi *mi* va *lya*** ga sozlanadi. Notalar skripka kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. Hajmi **kichik oktavadagi *mi*** dan **ikkinchi oktavadagi *do*** ga qadar.

Dutor bas - dutorning katta qilinib ishlangan turi. Dutor-basning to‘rtta tori bo‘lib, bular kvarta bo’yicha to’rtinchi tor **katta oktavadagi *do,* uchinchi tor katta oktavadagi *sol,* ikkinchi tor kichik oktavadagi *re* va birinchi tor kichik oktavadagi *lya*** ga sozlanadi; ***lya*** tori ichakdan qilingan bo‘lib, qolganlari metalldandir. Notalar eshitilishi bo‘yicha, bas kalitida yoziladi. Ovoz hajmi **katta oktavadagi *do*** dan **birinchi oktavadagi *sol*** ga qadar. ***Platon (Aflotun) tomonidan qayta rekonstruksiyalashtirilgan “Cho‘pon-Xuchir” cholg‘usining avlodlari hisoblanib, 2300 yillik tarixga egadir.***

Tanbur - O‘zbekiston, Tojikiston, janubiy Xitoyning Sinszyan viloyatida (bu yerda tanbur deb yuritiladi) keng tarqalgan torli tirnama qadimiy cholg‘u asbob. Tanburning kosasi nok shaklida o‘yilib yoki bir necha qovurg‘alardan yopishtirilib, bunga uzun dasta ulanadi; umumiy uzunligi 1100-1300 mm. Dastaga ichakdan qilingan parda bog‘lanadi. Baland tovushlar olish uchun ichak pardalardan tashqari, qopqog‘iga kichik va kalta cho‘plar yopishtiriladi (buni “has parda” deb ataladi). Pardalar soni 18-20 tacha. Tovushqatori diatonik bo‘lib, to‘rtta (ilgarilari uchta) sim tor taqiladi. Bu torlardan 1, 2 va 4-si bir ovozli (unison) bo‘lib, 3-tor kvarta, kvinta ba’zan sekunda past bo‘ladi. Notalar bas va skripka kalitlarida yoziladi. Tanburning 1, 2 va 4-torlari **katta oktavadagi *sol*** ga, **3-tor esa katta oktavadagi *re*** yoki ***do*** ga***,*** yoki ***fa*** ga sozlanadi. Ovoz hajmi **katta oktavadagi *sol*** dan **birinchi oktavadagi *sol*** ga qadar.

Tanbur o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘iga kiygizilgan maxsus noxun bilan chalinadi; chalinganda faqat birinchi tor urilib, qolganlari qo‘shimcha sado olish uchun foydalaniladi.

Uzoq o‘tmishda bir necha turli tanbur bo‘lib, shulardan biri Bag‘dod tanburi. U X asrga qadar qo‘llanilgan. Bag‘dod tanburining pardalari va hajmi (bo‘yi-rosti) o‘zbek tanburiga nisbatan kam va kichik bo‘lganligi uchun keyinchalik cholg‘ular qatoridan tushib qolgan.

Sharq tanburlaridan bizgacha saqlanib qolgani setordir. Setor ham noxun, ham kamon bilan chalinadi.

Tanburda xalq musiqalarini, maqom cholg‘u yo‘llarini yakkanavoz sifatida ijro etish, shuningdek, yakka holda yoki xonandaga jo‘r bo‘lishi ham mumkin.



Tanbur cholg‘usi ham boshqa o‘zbek xalq cholg‘ulari kabi takomillashtirilib, tovushqatori xromatiklashtirildi va orkestr tarkibiga kiritildi. Notalar skripka kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. O‘zbek tanburining uch tori bo‘lgan, keyinchalik takomillashtirilib, yana bir tor qo‘shiladi va kamon bilan chalinadigan sato deb atalmish cholg‘u paydo bo‘ladi. ***(8-9-asrda Arabiston va Muvoraunnahrda paydo bo‘lgan va Buxoro-ajdodiy san’atida takkomillashib yuqori mavqega erishgan.Tanbur - sharq cholg‘ularining piri va shahanshoxi hisoblanadi. Tanbur-dilkash-(fors tilidan tanano bur ma‘nosida). (Inson yuragini zapt etguvchi).Ushbu cholg‘uni Buxorodan Ibn-Sino 10 asr boshlarida Hindistonga tarqatgan va Tasnifi buzruk maqomini hindlarga o‘rgatgan.*** Tanbur tovushqatorining baland-pastlik darajasini taxminan shunday ko‘rsatish mumkin.

G‘ijjak

Sato - tanburning bir ko‘rinishidir. Avvalda oddiy tanburdan sato sifatida foydalanilgan bo‘lsa, hozirda tanbo‘rning biroz kattalashtirilgan va ko‘rinishi biroz o‘zgartirilgan turi bo‘lib ishlatilmoqda. Sato ijrosida noxun o‘rniga g‘ijjak va skripka cholg‘ularini ijro etishda ishlatiladigan kamondan foydalaniladi. Satoning tovushi juda mayin va ulug‘vordir. Unda asosan mungli va og‘ir kuylar ijro etiladi. Sato - dutor, tanbur cholg‘ulari bilan birgalikda va alohida holda yaxshi eshitiladi. Maxsus ovoz kuchaytirish moslamalarisiz katta ansambl va orkestrlarda ishlatilishi qiyin. Milliy cholg‘ularimiz qatoridan joy olgan sato, kamon bilan ijro qilinadigan cholg‘ulardan hisoblanadi. Ammo sato noxun bilan ijro etilsa, tanburga aylanadi. Satoning to‘rtta tori bor, torlar kuylarga qarab sozlanadi. Satoning tovushi inson tovushiga yaqin. Satodan chiqqan navo xuddi so‘zsiz qo‘shiqday yangraydi.

Sato cholg‘uchilari uncha ko‘p emas. 1940-1950 - yillarda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrining sozandasi A.Barayev shu cholg‘uda ijro etardi. Ammo satoni elimizga tanitgan, elga manzur qilgan mashhur sozanda Turg‘un Alimatov bo‘ladi. Sato ko‘hna cholg‘ular qatoriga kirib, musiqa olamida katta yangilik bo‘ldi. ***(Tanburning yangi avlodi. XIX asr boshlarida yuzaga kelgan.)***

Sato

G‘ijjak - O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbeklar orasida qadimdan keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholg‘udir; kosasi qovoqdan, kokos yong‘og‘i (norjid yong‘oqdan) va o‘rtasi kovak qilinib o‘yilgan yog‘ochdan yasaladi. Kosaning ustiga baliq terisi yo pufak qoplanadi. Dastasi dumaloq bo‘lib, kosaga yaqinlashgan sari ingichkalashtirilib ishlanadi. Kosaga o‘rnatilgan temir oyoqchani ijrochi tizzasiga qo‘yib, o‘tirib ijro etadi. G‘ijjakda avval uchta tor bo‘lgan, ular kvarta bo‘yicha sozlangan. Sozlanishi har doim aniq bir tovushda bo‘lmay, ashulachining ovozi yo chalinadigan kuyning xarakteriga moslashgan. Ovoz hajmi bir yarim oktava oralig‘ida bo‘lgan. 1920-yillarda sozandalar g‘ijjak ovozini baland qilish maqsadida unison qilinib sozlangan qo‘shtorlar ishlatganlar. Kamonchasi ot dumidan ishlanib, ijro etish vaqtida o‘ng qo‘l barmoqlari bilan tortib turiladi. 30-yillarga kelib, g‘ijjak cholg‘usi qaytadan ishlandi: to‘rtta tor joriy qilindi; bular **skripkadek** kvinta oralig‘ida, **4-eng pastki yo‘g‘on tor kichik oktavadagi *sol*** ga**, 3-tor birinchi oktavadagi *re*** ga**, *2*-tor birinchi oktavadagi *lya*** ga **va oxirgi 1-tor ikkinchi oktavadagi *mi*** ga **sozlandi; ovoz hajmi kichik oktavadagi *sol*** dan **to‘rtinchi oktavadagi *lya*** ga kadar. Orkestrda ijro etish uchun g‘ijjakning katta-kichik (alt, bas, kontrabas) turlari ishlangan. ***(G‘ijjaksimon cholg‘ular eramizdan oldin ham mavjud bo‘lgan, ammo milliy g‘ijjakimiz tarixi 9- asrga tegishlidir).***

Hozirda g‘ijjak tojik, ozarbayjon, turkman, arman, uyg‘ur xalqlarida uchraydi. Uning dastasida pardalari bo‘lmaganligi sababli kerakli tovushlarni hosil qilish sozandadan yaxshi eshitish qobiliyati va yuksak mahorat talab qiladi. To‘xtasin Jalilov, Murodjon Toshmuhamedov,

Abduhoshim Ismoilov, Shuhrat Yo‘ldoshev, Botir Rasulov, Qahramon Nazirov kabi qator sozandalar g‘ijjak cholg‘usining mohir ijrochilari hisoblanadi. G‘ijjak yakka soz holida, ansambl va orkestr tarkibida keng qo‘llaniladi.

G‘ijjak alt - asosiy g‘ijjakning bir oz kattaroq qilib ishlangan turi. Torlar kvinta oralig‘ida, **4-tor kichik oktavadagi *do*, 3-tor kichik oktavadagi *sol*, 2-tor birinchi oktavadagi *re* va 1-tor birinchi oktavadagi *lya*** ga sozlanadi. Ovoz hajmi **kichik oktavadagi *do*dan uchinchi oktavadagi *lya*ga qadar**. Notalar alt va (baland tovushlari) skripka kalitida yoziladi.

G‘ijjak bas - asosiy g‘ijjakning katta qilib ishlangan turi bo‘lib, violonchel vazifasini bajaradi. Torlar kvinta oralig‘ida, **4-eng pastki tor katta oktavadagi *do*, 3-tor katta oktavadagi *sol*, 2-tor kichik oktavadagi *re* va 1-tor kichik oktavadagi *lya*** ga sozlanadi. Ovoz hajmi **katta oktavadagi *do* dan uchinchi oktavadagi *re*** ga qadar. Notalari bas va (baland tovushlar) skripka kalitida yoziladi.

G‘ijjak kontrabas asosiy g‘ijjakning eng katta qilib ishlangan turi - kontrabas vazifasini bajaradi. Torlar kvarta oralig’ida - **4-eng pastki tor kontroktavadagi *mi*, 3-tor kontroktavadagi *lya*, 2-tor katta oktavadagi *re* va 1-tor katta oktavadagi *sol*** ga sozlanadi. Ovoz hajmi **kontroktavadagi *mi* dan birinchi oktavadagi *sol*** ga qadar. Notalar bas kalitida, eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. G‘ijjak kontrabasni kontrabasdek tik turib chalinadi.

QASHQAR RUBOBI

Ma’lumki, hozirgi kunda O‘zbekistonda Qashqar rubobi va Afg‘on rubobi, Tojikistonda esa Qoshg‘ar rubobi, Badaxshon rubobi, Pomir rubobi, Qumri (katta rubob) kabi rubob cholg‘ulari mavjud. O‘zbekistonda Qoshqar rubobi 1937 - yillardan boshlab qo‘llanila boshlagan. Bu borada rubob musiqa cholg‘usining eng yetuk mutrib sozandasi O‘zbekiston xalq artisti ustoz Muhammadjon Mirzayev bilan suhbat shuni ko‘rsatadiki, Toshkentda dastlab bir uyg‘ur sozandasi bu cholg‘uni ijro etib yurgan. Muhammadjon Mirzayev bu rubobni ko‘rib undan nusxa olish maqsadida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan San’at Arbobi xalq ustasi Usto Usmon Zufarov ustaxonasiga boradi. Aynan shu 1937 - yilda O‘zbekistonning Moskva shahrida bo‘ladigan birinchi dekadasiga tayyorgarlik ko‘rilib, turli xil musiqa cholg‘ulari ham tayyorlanayotgan edi. Shu yili Usto Usmon Muhammadjon Mirzayevga o‘zi olib kelgan Uyg‘ur rubobidan aynan nusxa olib bir necha rubob tayyorlaydi va birinchi tayyorlangan Qoshg‘ar rubobi Muhammadjon Mirzayevga taqdim etiladi. Ma’lumki bu turdagi rubob aynan tanbur singari bo‘lib, bunda pardalar bog‘langan, sozlanishi ham aynan tanbur singari bo‘lgan. Faqat bu yangi tayyorlangan rubobda bog‘langan pardalar o‘rniga, po‘latdan yasalgan pardalar o‘rnatiladi. Sozlanishi avalgidek kvinta ya’ni lya, re, lya ovozlariga. Bu turdagi sozlanish rubobning an’anaviy sozlanishi, keyingi yillarda qayta tayyorlangan rubobning sozlanishi lya, mi, lya kvarta ovozlariga, lekin to hozirgi kungacha Muhammadjon Mirzayev va ustozning farzandlari Shavkat Mirzayev an’anaviy sozlarda behisob musiqiy asarlarni bastalab, cho‘lg‘u va ashula yo‘li uslubida hamda jo‘rvozlik ijro yo‘lida ikki rubob jo‘rligida ijro etib kelishmoqda. 1937 - yilda yana ushbu rubobdan nusxalar olinib, rubobda Abbos Bahromov, Bo‘riboy Mirzaahmedov, Ergash Shukurillayevlar ham ushbu sozda chalish sirlarini o‘rgana boshlaganlar.

Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg‘ur avtonom okrugi) ning Qashqar degan joy nomi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zbek milliy cholg‘ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg‘u hisoblanadi. Musiqani

endigina o‘zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig‘i ana shu cholg‘udan foydalanishi ma’lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo‘lib, nisbatan tez o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan cholg‘ular qatoriga kiradi. Bu cholg‘u yakka holda va cholg‘u jamoalari tarkibida ishlatilishi mumkin. ***Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Shavkat Mirzayev, Qobiljon Usmonov, Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Tohir Rajabiy kabi sozandalar ushbu cholg‘u dovrug‘ini yoyishda ulkan xizmat ko‘rsatganlardan hisoblanadi***.[1]

Qashqar rubobining sozlanishi

Qashqar rubobning birinchi juft tori birinchi oktavaning **“Lya”** tovushiga, ikkinchi juft tori birinchi oktavaning **“Mi”** tovushiga, uchinchi tori esa kichik oktavaning **“Si”** tovushiga sozlanadi. Bundan tashqari, qanday asar ijro etilishiga qarab, uchinchi tor kichik oktavaning **“Lya”** hamda ikkinchi tor birinchi oktavaning **“Re”** tovushlariga ham sozlanishi mumkin.



Tovushlarning nota chiziqlarida joylanishi



Shu tovushlarning rubob pardalarida joylanishi



Diapazoni



Qashqar rubobi uchun yozilgan musiqiy asarlar skripka kalitida yoziladi, yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi.



[1] S.B.Saidiy - Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg’ular. (O’zbek va tojik musiqa an’analari misolida).”Musiqa” nashriyoti;Toshkent-2008.

Notalar turli xil cho‘zimdan iborat bo‘lib, ular bir - biridan shakliga ko‘ra farq qiladi:



– Butun nota. 1 i, 2 i, 3 i, 4 i ga sanaladi.

– Yarim nota. 1 i, 2 i ga sanaladi.

– Chorak nota. 1 i ga sanaladi.

– Nimchorak (sakkiztalik) nota. 1 yoki i ga sanaladi.

– O‘n oltitalik nota. Ikki nota 1 yoki i ga sanaladi.

– O‘ttiz ikkitalik nota. To‘rt nota 1 yoki i ga sanaladi.

1.**Quloqlar**

2.Rubobning bosh qismi

3.Shayton xarrak

4.Pardalar

5.Dasta

6.Teri

7.Birinchi tor

8.Ikkinchi tor

9.Uchinchi tor

10.Xarrak

11.Ilmoqlar

12.Kosa



Plastmassa va ebonit

AEROFONLAR

Nay - qadimiy puflama o‘zbek xalq musiqa asbobi. Nay O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lib, ansamblda, o‘zbek xalq asboblari orkestrida muhim o‘rin tutadi, yakka holda ham chalinadi. Ovoz hajmi kengligidan xalq kuylarida, maqomlarda qo‘llaniladi. Tovushi baland bo‘lganidan ansamblda ko‘proq boshlovchilik vazifasini ham bajara oladi. Barmoqlar bilan berkitiladigan olti teshikchadan iborat diatonik tovushqatoriga ega. Umumiy ovoz hajmi **birinchi oktavadagi lya** dan **to‘rtinchi oktavadagi re** ga qadar. Notalar skripka kalitida eshitilganicha yoziladi. Barmoqlar bilan teshikchalarni to‘la yo yarim berkitish va turlicha puflash yo‘li bilan baland, past tovushlar chiqaziladi. Nayni puflaydigan va barmoqlar bilan bosiladigan birinchi teshikcha o‘rtasida yana bir teshikcha bo‘lib, bunga yupqa qog‘oz yopishtiriladi, buni asosan xitoylik ijrochilar qo‘llashadi. Xitoyda nay g‘arovdan yasalib, o‘sha teshikchani g‘arovdan chiqadigan yupqa parda bilan yopishadi. Bu tovushni to‘lqinlatib chiqazishga yordam beradi. Nayning ikkinchi uchida doimiy ochiq turadigan to‘rtta teshikcha (ikkisi ikki yonda, qolgan

ikkisi ost tomonda) ayrim pardalardagi tovushlarni yumshatib berish uchun xizmat qiladi. Nayning umumiy uzunligi 500-600 mm. Nay yog‘ochdan, g‘arovdan va misdan yasaladi. Shunga ko‘ra , “yog‘och nay”, “g‘arov nay”, “mis nay” deb ataladi. ***(Naysimon cholg‘ularning oilasi 11-ming yil oldin paydo bo‘lgan. Masalan go‘ri- qozg‘on go‘ridan topilgan cho‘pon nayi burgut qanotidan yasalgan bo‘lib, o‘zbekistonda 7 va 3,5 ming yillik naysimon cholg‘ularning tarixi ham mavjud).***

Ko‘hna rivoyatlarning birida aytilishicha, Cho‘pon bobo ichi bo‘sh qamishni kesib olib, unda barmoq bilan berkitib-ochadigan teshikchalar o‘yibdi. Unga “nay” deb nom qo‘yibdi. Farzandlariga cho‘ponlik tayog‘ini topshirar ekan, nayni ham qo‘shib beribdi. Ular cho‘lu biyobonlarda, yam-yashil yaylovlarda qo‘y boqib, bobosi yasab bergan nayni chalib yurishibdi. Nay ohangiga “asir” bo’lgan qo‘ylar podadan aslo ajralmas ekan. Yillar o‘tib, bu soz shaharlik mashoyixlar qo‘liga tegibdi. Ular ham nayning sehrli tovushidan lol qolishibdi. Uni yanada takomillashtirib, zeb berishibdi. Nayni qamishdangina emas, balki yog‘ochdan, misdan va boshqa turdagi metallardan ham yasab ko‘rishibdi. Usta naychilardan Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov va hozirgi kunda Mirza Toirov, Abdulahat Abdurashidovlar nomi barchaga ma’lum. Bu ustozlarning “Cho‘li iroq”, “Chorgoh”, “Bir kelsin” va shu kabi ajoyib asarlarni ijro etishganda kishining ko‘ngli yoziladi va ruhi ko‘tariladi va a’lo kayfiyatni his etadi.



Surnay cholg‘usi ham qadimiy tarixga ega. Bu cholg‘u, asosan, tantanalar, bayramlar, sayillar, to‘ylarda doyra, nog‘ora, karnay cholg‘ulari bilan birgalikda ishlatiladi. Surnayning tovushi juda kuchli bo‘lganligidan ochiq joylarda foydalaniladi. Surnay o‘rik, yong‘oq kabi qattiq daraxtlar yog‘ochidan tayyorlanadi. Uning ustki tomonidan oltita va pastki tomonidan bitta teshik ochilgan bo‘lib, ana shu teshiklarni ochish yoki yopish orqali kerakli tovushlar hosil qilinadi. Surnayda tovush hosil qilinadigan qism alohida tayyorlanib, “nay pachoq” deyiladi va har safar ijro etishdan oldin surnayga o’rnatiladi.

Bu cholg‘u nay va qo‘shnay cholg‘ulariga nisbatan tovushi ancha baland, eniga qalin bo‘lib, uzunligi esa nay bilan tengroq bo‘ladi ovoz hajmi **kichik oktavadagi *lya*** dan **ikkinchi oktavadagi *mi*** ga qadar. Notalar eshitilganicha skripka kalitida yoziladi.

Surnay ham juda ko‘hna musiqiy cholg‘ulardan hisoblanib, dorbozlarning jarchisi sifatida dor o‘yinlariga xalqni to‘plashda xizmat qilgan. Nog‘orachi, do‘mbirachi, karnaychilar bilan birga, surnaychilar ham dor tagida turli kuylar ijro etishib, tomoshabinlarni xushnud etganlar. Surnay katta bayramlarda, to‘ylarda o‘zining jozibali, yangroq, baland tovushi bilan kishi dilini quvontirgan, ruhini ko‘targan. Bu sozda nafaqat bayramona, balki mungli kuylar ham ijro etiladi. Masalan: **“Navo”, “Navro‘zi ajam, “Munojot”, “Mushkulot”** kabi kuylarni usta sozandalar ijro etishsa, eshituvchining dilini ham quvnatadi, ham yig‘latadi. Surnay ana shunday sehrli sozlardan biridir. Surnayda yuksak darajada, mahoratli ijro etishning sirlaridan biri, bu - nafas qaytarib, ya’ni uzluksiz dam berib (puflab) ijro etishdir. Bunday uslub boshqa cholg‘ularda uchramaydi. Bobokalon surnaychilardan Ahmadjon surnay (Umrzoqov), Ashurali surnay, Qayum surnay va boshqalar bo‘lganlar.

Hozirda yosh surnaychilarimiz ham musiqa merosini yaxshi o‘rganib, milliy musiqamizga va uning rivojiga xizmatlarini qo‘shib kelmoqdalar. So‘nggi vaqtlarda surnay cholg‘usi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri tarkibida ham qo‘llashmoqda.

Sibizg‘a yoki sibiziq juda qadimiy musiqiy cholg‘ulardan biri ekanligi ma’lum bo‘lib, u chorvachilik rivojlangan hududlarda paydo bo’lgan, deb taxmin qilinadi. Sibizg’a g’arov qamish bo‘lagidan tayyorlanadi va qat’iy o‘lchamlari belgilanmagan bo‘ladi. Har bir ijrochi o‘z ixtiyoriga ko‘ra xohlagan hajmda tayyorlab, 5 tagacha teshiklar ochishi mumkin. Keyingi paytlarda unutila boshlagan bu cholg‘uning qayta jonlantirilishi Surxondaryolik Nodir bobo va uning farzandlari Abdurashid bobolarning ijrochilik an’analarini davom ettirishga katta yordam berdi. Bugungi kunda katta bayram tantanalari va folklor jamoalari chiqishlarining sibizg‘a tovushini yangrashi bilan boshlanishi odat tusiga aylanib bormoqda.

Sibizg‘a cholg‘usining takomillashtirilgan va ikki donasini birgalikda qo‘shib chalinishidan hosil bo‘lgan musiqiy cholg‘u - **qo‘shnaydir**. Qo‘shnay tayyorlanadigan qamishlar bir oz yo‘g‘onroq va qalinroq bo‘ladi. Har ikkala qamish bo‘laklari xuddi sibizg‘adagi singari til ochiladi va har bir bo‘lakning uzunligi va yo‘g‘onligi bir xil bo‘lishi talab qilinadi. Kerakli tovushlarni hosil qilish uchun esa har ikkala bo‘lakda ham bir xil masofada 7 donadan teshiklar ochiladi. Qo‘shnay cholg‘usi Xorazmda kengroq qo‘llaniladi. Uning sadolanishida “g’izillashga” o‘xshagan tebranish seziladi.

Qo‘shnayda ijro etish uslubida ikkita naychaga barobar puflanadi va har ikkala naychada yondosh joylashgan yettita teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi **birinchi oktavadagi *re*** dan **ikkinchi oktavadagi *sol*** ga qadar, ayrim qo‘shnaychilar **ikkinchi oktavadagi *lya, si***, hatto bundan yuqori tovushlarni ham hosil qiladilar. Qo‘shnayda o‘zbek musiqasi uchun xos bo‘lgan melizmlarni ijro etish juda qulaydir.

Bulamon (balabon) surnaydan ko‘ra birmuncha kichikroq, qattiq yog‘och tanasidan ishlangan cholg‘u bo‘lib, tovush hosil qilinadigan qismi surnaynikidan farq qiladi. Bulamanda “nay pachoq” o‘rnida sibizg‘asimon til ochilgan qamish bo‘lagidan foydalaniladi. Bulamanda ham kerakli tovushlarni hosil qilish uchun teshiklar ochilib, ularning yettitasi ustki tomonda va bittasi pastki tomonda bo‘ladi. Bulamanning tovush tembri (kuchi) surnaynikidan pastroq bo‘ladi. Shuning uchun ham bu cholg’uni ansambl tarkibiga kiritib, qo‘shiq ijrochilariga jo‘r bo‘lishda foydalanish mumkin. Bu cholg‘u Xorazmdan boshqa hududlarda deyarli ishlatilmaydi.

Karnay - o‘zbek damli musiqiy cholg‘ularining eng kattasi (2 metrdan oshiqroq) va eng kuchli tovush tembriga ega desak xato bo‘lmaydi. Uning hajmi kattaligini inobatga olgan holda, og‘ir bo‘lmasligi uchun, yupqa mis tunukadan tayyorlanadi va alohida 3 ta bo‘lakni bir-biriga qo‘shib kiydirish orqali yig‘iladigan ko‘rinishda tayyorlanadi. Bu cholg‘udan surnay, doyra, nog‘ora bilan birgalikda ochiq joylarda ijro etish mumkin bo‘lgan ansambllarda foydalaniladi. Qadimda karnaylardan harbiy yurishlarda ham keng foydalanilgan. Karnay bayramlarda, tantanali marosimlarda, surnay, nog‘ora va doyraga qo‘shib chalinadi. Karnay ijrosida asosiy tovushdan sof kvinta yoki kichik septima intervali eshitiladi.

III BOB
AMALIY MASHQLAR VA ETYUDLAR

Rubobda ijro holati

Chalish texnikasini yaxshi oʻzlashtirish uchun rubobni toʻgʻri ushlashga jiddiy e’tibor berish zarur. Rubobni turib yoki oʻtirib chalish mumkin. Turib chalganda gavdaning ogʻirligi ikki oyoqqa tushib turishi, oyoqning yerdagi oʻrni yelka kengligiga toʻgʻri kelishi kerak. Rubobning kosasini oʻng qanot orasiga yaxshi oʻrnatib ushlash lozim, ya’ni uning kosasi qoʻltiq bilan oʻng qoʻl bilagi orasiga olinadi. Oʻng tirsak gavdaga yopishib turmasdan erkin turishiga alohida e’tibor berish zarur. Oʻtirib chalganda esa stul suyanchigʻiga suyanmay gavdani oldinga egmasdan oʻtiriladi.

Rubob dastasi (grifi) chap qoʻlning bosh barmogʻi bilan koʻrsatkich barmogʻi orasida joylashtiriladi. Grifni chap qoʻlning bosh barmogʻi bilan qisish (bosish) mumkin emas, chunki chap qoʻl barmoqlari tor ustida erkin turishi kerak. Oʻng qoʻl panjalarini qattiq bukmaslik lozim. Chalayotgan panjalarga zoʻr berish yaramaydi, ular tabiiy ogʻirlik kuchi bilan harakat qilishi maqsadga muvofiqdir. Ijrochi chalish vaqtida rubob pardalarini yaxshi koʻrib turishi uchun ustki qismini bir oz oʻziga tomon burib ishlashi lozim. Chunki ijrochi koʻrib chap qoʻl barmoqlarini rubob pardalariga toʻgʻri bosishiga imkon yaratadi. Bu oʻz navbatida ijrochilik mahoratini oshirishda muhim zamin tayyorlaydi.

Qashqar rubobida tovush hosil qilish asosan mizrob (noxun) yordamida amalga oshiriladi. Mizrobning asosiy qismi oʻng qoʻlning bosh va koʻrsatkich barmoqlari bilan ushlanadi. Mizrobni rubob torlariga yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga chertish bilan tovush hosil qilinadi. Mizrobni toʻgʻri ushlash uchun oʻng qoʻl barmoqlari bukilib kaftga yigʻiladi, ammo musht qilinmaydi. Rubob chalishni oʻrganayotgan dastlabki vaqtda mizrobni qattiq siqib chalish mumkin emas, chunki qoʻl tezda charchab qoladi. Rubobning tovushini jarangdor va kuchli chiqarish uchun mizrobni qattiq ushlash kerak, yumshoq va mayin tovush hosil qilish uchun esa mizrobni boʻshroq ushlab chertish lozim.

Mizrobni rubob torlariga urganda shunga e’tibor berish kerakki, u torning xarrakka yaqin qismiga tegmasdan, xarrak bilan rubob dastasining tugallangan joyi oʻrtasiga urilishi shart. Rubobni oʻrganish jarayonida quyidagi shtrixlar (torli cholgʻu asboblarida mizrob bilan chalish usuli) ni bilib olish lozim.

Bir navbatli zarb musiqa asarining sur’atiga qarab mizrobning torlarga bir xil kuch bilan pastga va yuqoriga urilishi. Bu zarb notada **II** (pastga urish) va **V** (yuqoriga urish) belgilari bilan koʻrsatiladi. Bu belgilar nota ustida yoziladi:



Qoʻsh navbatli zarb mizrobning torlariga bir tekisda pastga va yuqoriga urilishi natijasida hosil boʻladi:





Teskari zarb; bir taktdagi notalarga mizrobning 1,3,4,6 va 7- zarblari pastga, 2,5,8 zarblari esa yuqoriga qarab uriladi. Bunda taktning kuchli hissasi zarb urg‘usiga to‘g‘ri kelmaydi:



Tremola (rez) rubob torlariga mizrob bilan past va yuqoriga qarab ketma-ket tez urib chalish natijasida hosil bo‘ladi. Odatda cho‘ziq, sekin ijro etiladigan kuy-qo‘shiq, alla, shuningdek butun, yarim va chorak notalar rez usuli bilan ijro etiladi. Bundan tashqari liga va legato belgilari bilan birlashtirilgan tovushlarni ham rez usulida ijro etish mumkin:



Bog‘lama tremola (legato) har xil balandlikdagi ikki yoki bir necha tovush cho‘zimini uzluksiz tremola bilan ijro etish usuli bo‘lib, bu belgi nota usti yoki ostiga chizilgan yoysimon shaklda ko‘rsatiladi:



Kalta tremola (detashe) notani cho‘zimga mos ravishda to‘xtovsiz tremola bilan ijro etish. U bir xil yoki turli balandlikdagi tovushlarni ijro etishda qo‘llaniladi. Bu belgi nota ustiga yoki ostiga chizilgan chiziqcha shaklida ko‘rsatiladi:





Stakkato (alohida) mizrobning faqat bir tomonga pastga urilishidan hosil bo‘lgan qisqa cho‘zimli tovush. Bu usul mizrob torga urilishi bilan chap qo‘l barmoqlarining pardadan bir oz ko‘tarilishidan hosil bo‘ladi. Stakkato har bir notaning ust yoki ostiga nuqta qo‘yish bilan ko‘rsatiladi:



Pissikato (tirnalib) o‘ng bosh barmoqning tirnog‘i bilan torlarni yuqoridan pastga tortib chalish. Tirab chalganda tovushlar qisqa yoki sekin eshitiladi. Bu so‘z notaning ustiga to‘liq holda yoki qisqa qilib pizz. deb yoziladi:



Glissando (sirg’anib) chap qo‘l barmoqlarining yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga tor bo‘ylab tez sirg‘anishi natijasida bir tovushning ikkinchisiga o‘tshi. Glissando nota tekstida so‘z bilan “glissando” yoki notalar orasiga chizilgan to‘lqinli chiziq (~~~) shaklida ko‘rsatiladi. Glissando asosan torli cholg‘u asboblari ijrosida uchraydi. Fortepianoda esa klavishlar ustidan barmoqlarni tez yurgizish bilan amalga oshiriladi:



Demak, rubob torlariga urib chalish uchun maxsus qo‘llaniladigan belgilar nota ustiga quyidagicha ko‘rsatiladi.

П - mizrobni rubob torlariga pastga qarab urish;

V- mizrobni rubob torlariga yuqoriga qarab urish;

(ПV) - notani pastga va yuqoriga qarab ijro etish;

– notani rez bilan ijro etilishi

– detashe (qisqa rez) – har bir notani o‘z cho‘zimiga qarab alohida rez bilan chalish

– stakkato – notani qisqa-qisqa uzib chalinishi

– tovushni sadolantirishda noxun zarbini ishlatmasdan chap qo‘l barmoqlari harakati bilan kifoyalanish

– mordent – tayanch tovush noxun bilan chalinib, yordamchi tovushlarni chap qo‘l barmoqlari bilan sadolantirish

– arpedjio – bir necha tovushlarni noxunning bir zarbida sirg‘anma harakatlantirish orqali ijro etish

+-tovushlarni mizrobning bir zarbidan sirg‘anma harakatlantirish orqali chalish.

Rubob pardalarida u yoki bu notani hamda gamma va etyudlarni, shuningdek, musiqa asarlarini ko‘rsatilgan barmoq bilan bosib ijro etish ijrochining eng asosiy vazifalaridan biridir. Barmoqlarni sanash chap qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘idan boshlanib, chimchiloqda tugaydi. Bunda barmoqlar:

1- (ko‘rsatkich barmoq);
2- (o‘rta barmoq);
3- (yon barmoq);
4- (chimchiloq) raqami bilan belgilanadi;
0- (nol) ochiq torni chalish uchun ko‘rsatiladi.

Demak, nota ustida qanday barmoq koʻrsatilgan boʻlsa, rubob pardalarini albatta oʻsha barmoq bilan bosib chalish kerak. Rubob pardalarida toʻliq ovoz hosil qilish va ijrochilik texnik imkoniyatini oshirishda applikatura (nem. Applicotur, lot. Applico-qoʻymoq, bosmoq)dan toʻgʻri foydalanish tavsiya etiladi. Applikatura hamma musiqa asbobi, jumladan qashqar rubobi uchun ham katta ahamiyatga ega. Applikaturaning toʻgʻri, aniq qoʻllanilishi musiqa asarini oʻrganish, oʻzlashtirish hamda badiiy ijro qilishda asosiy omillardan biri boʻlib xizmat qiladi. Shuning uchun har bir musiqa asarini oʻquvchi-talabalarga oʻrgatishdan oldin oʻqituvchi asarni oʻzi chalib, notalar ustiga qaysi barmoqda chalishni yuqorida koʻrsatilgan arab raqamlari bilan belgilab chiqishi lozim. Bu musiqa asarining texnik tomonidan mohirona va sifatli ijro etilishini osonlashtiriladi.



Rubob pardalarida chap qoʻl barmoqlarini toʻgʻri bosish, bir tordan ikkinchi torga oʻtish, shtrixlarni mukammal egallash rubobda toʻliq ovoz hosil qilish va chalish imkoniyatlari sifatini oshirish uchun quyidagi pozitsiya (vaziyat)dan foydalanish maqsadga muvofiqdir:



Bu pozitsiyalar oʻquvchini gamma va arpedjiolarni har xil shtrixlarda ijro etib, texnik mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda musiqiy badiiy asarlarni mohirona ijro etib rubobdan yoqimli, mayin, tiniq va sifatli tovush chiqarish imkoniyatini yaratadi:

O‘QUV MATERIALLARI

Mashqlar:





Etyud



Etyud



Etyud



IV BOB

YAKKA IJRODA ASARLAR MAJMUASI

DO'LONCHA

O'zbek xalq kuyi

O'ynoqi



Qashqarcha

(O'zbek xalq kuyi)

Tez



PYESA

Allegro moderato

O. Karimov



GULBAHOR

O’rtacha tez O’zbek xalq kuyi



Xumor

R.Ne'matov



BAHOR



O'zgancha

O'zbek xalq kuyi

Shoshilmasdan



Norim-norim

Marsh sur'atida

Xorazm xalq kuyi



DIL KUYI

M. Mirzaev



Sharob

O`zbek xalq kuyi

Moderato



Nasri Segoh

O`zbek xalq musiqasi.



Dilxiroj

O'zbek xalq kuyi



O'rik gullaganda

O'rtacha

H.Olimjon she'ri



Dutor bayoti

(O'zbek xalq kuyi)

E. Shukrullaev notaga olgan.



Shaxlo

AllegroO'rtacha tez

Rahmatulla Tursunov



ARZI HOL

O'rtacha tez

R.Tursunov musiqasi



Aliqambar

O'zbek xalq kuyi.

O'rtacha tez



Xorazm lazgisi

(Xorazm xalq kuyi)



Raqs

G'Qodirov

Allegretto



Ko'rmadim

D.Zokirov

O'rtacha tez



YANGI TANOVAR

Jadal

M. Mirzayev musiqasi



EY GUL

Tez-shoshilmasdan **M. Mirzaev musiqasi**



Samoi Dugoh

Dugoh maqomidan

Shoshilmasdan



Bahor valsi

Ohangdor M.Mirzayev musiqasi




2
f
1
mf
mf
mp
rit.

Qari navo

M. M. ♩ = 120-126

